

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TALIM
VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qol yozma huquqida
UDK 312.(575.171)

GANJAYEVA MAMAJAN MATCHANOVNA

**XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK VAZIYATIDAGI
O'ZGARISHLAR**

**5A140602 «Geografiya (Umumiy geografiya)»
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Magistratura bo`limi baslig`i:
y.i.k. dots. Gulimov A.B.

Geografiya kafedrası baslıg`ı:
g.i.k. dots. Embergenov N.J.

Ilimiy basshi:
g.i.k. dots. Xodjaeva G.A..

NUKUS-2017

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB AHOLI TAKROR BARPO BO'LISHINI O'RGANISH-NING NAZARIY ASOSLARI	8
I.1. Demografik jarayonlarni o`rganishning nazariy-uslubiy asoslari....	8
I.2. Aholi rivojlanishining mintaqaviy milliy siyosati.....	17
II BOB XORAzm VILOYATINING HOZIRGI ZAMON DEMOGRAFIK JARAYONLARI	24
II.1. Xorazm viloyati aholisining tadrijiy o`sishi, rivojlanishi va joylashish xususiyatlari	24
II.2. Viloyat aholisining tabiiy va migratsion harakati	35
II.3. Viloyat aholisining demografik tarkibi	47
III BOB XORAzm VILOYATI AHOLISINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHI BILAN BOG'LIK MUAMMOLAR VA UNI HAL ETISH YO'LLARI.....	56
III.1. Orolbo`yi mintaqasining demoekologik muammolari va univiloyat demografik vaziyatidagi o'rni.....	56
III.2. Tug`ilishni tartibga solish muammolari.....	65
XULOSA.....	69
ADABIYOTLAR RO'YHATI	74
ИЛОВАЛЯР.....	80

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi: Bozor munosabatlari sharoitida, yangicha ijtimoiy-iqtisodiy muhitning shakllanishi, aholi soni va hududiy tarkibi bilan bog`liq chuqur nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishni taqoza etadi. O`zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida makroiqtisodiyotni tobora barqarorlashtirishga erishilmoqda. Ayni vaqtida mazkur islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni izchil davom etib, u bugungi kunning eng dolzarb vazifasi sanalmoqda. Mamlakatda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni bir qator ijtimoiy, demografik hamda iqtisodiy omillar bilan uzviy bog`liq. Ayniqsa bozor munosabatlari sharoitida mazkur omillarning ahamiyati yana ham ortib bormoqda. Bundan mamlakat har bir mintaqasi rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlaridan oqilona foydalanish masalalari kelib chiqadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta`minlash, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish ishlarini izchil davom ettirishda aholining ijtimoiy turmush sharoitini yaxshilash va ish bilan bandlik darajasini oshirishga katta e`tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan qayta-qayta bunday masalalarni amalga oshirishda respublikamizning barcha hududlarida ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish va takomillashtirish lozimligi ta`kidlab o`tilgan. Shu sabab bu masala mamlakat ko`lamida o`rganilishi zarur.

Bu masala mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev e`tiboridan ha'm chetda qolmadı. 2017-yil 7-fevral kuni qabul qilingan “2017–2021 yillarda O`zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha harakatlar strategiyasi” da – “oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko`rsatish, chaqaloqlar va bolalar o`limini kamaytirish bo`yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada keng amalga oshirish, shuningdek, sog`liqni

saqlash sohasini, eng avvalo, uning aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo‘g‘inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash”¹ masalalarini ko‘ldalang qo‘ydi. Bularning barchasi mamlakat demografik jarayonini rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ushbu mavzu hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biriga bag’ishlangan.

Yuzaga kelgan demografik vaziyat mamlakatimiz turli mintaqalarida har xil va ko`p jihatdan geoekologik muammolariga ham bog`liq. Jumladan, Orol dengizining qurib borishi va u bilan bog`liq Xorazm viloyatida yuzaga kelgan ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mintaqada demografik jarayonlariga salbiy ta`sir etmoqda.

Mavjud demografik va ekologik vaziyat viloyatda har xil yuqumli kasallik turlari ko`payishiga, umumiyligi va go`daklar o`limining yuqori bo`lishiga, migratsiyaning esa salbiylashuviga olib kelmoqda. Bu jarayonlar, o`z navbatida, aholining o`sishiga va joylashishiga ta`sir etmoqda. Shu bois, aholini tadqiq etishda murakkab ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar majmuali qarashni taqozo etib, bunday masalalarni ilmiy jihatdan asoslash ushbu mavzuning dolzarbligini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot obekti va predmeti: Tadqiqot **ob`ekti** sifatida Xorazm viloyati aholisining o`sishi, undagi o`zgarishlar va viloyat aholisining hududiy tarkibi tanlangan. Tadqiqot **predmetini**, Orol bo`yida joylashgan Xorazm viloyatining o`ziga xos geoekologik vaziyatini hisobga olgan holda, aholi sonining o`sishi va demografik vaziyatidagi o`zgarishlarini o`rganish tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari: Ilmiy ishning asosiy maqsadi Xorazm viloyati aholisining demografik vaziyatini, demografik jarayonlarni tahlil qilish asosida aholi hududiy tarkibidagi o`zgarishlarni aniqlashdan iborat.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегиси тўғрисида» ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси конун хуҷатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда

Yuqorida qo'yilgan maqsaddan kelip chiqip, bu dissertatsiyaga quyidagi **vazifalar** qo'yildi:

- ✓ bozor munosabatlari sharoitida ekologik keskin vaziyatda aholining o'sishi va hududiy tarkibini takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalarini o'rganish;
- ✓ Xorazm viloyatining geografik joylashgan o'rni va u bilan bog`liq demografik, ekologik jarayonlarning mohiyati va xususiyatlarini aniqlash;
- ✓ viloyat aholisining o'sishi va joylanishini tahlil qilish, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish;
- ✓ demografik vaziyatiga bog`liq aholi sonining o'sishi, joylanishi bo`yicha maxsus kartalar ishslash;
- ✓ aholining migrations maylini o'rganish va uning o'sishi, hududiy tarkibi tahlil qilish;
- ✓ aholining hozirgi kundagi holatini o'rganib uning kelajakdagи rivojlanish prognozlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Bu ish Xorazm viloyati aholisining demografik vaziyatidagi o'zgarishlarni kompleks o'rgangan ijtimoiy-geografik ilmiy-tadqiqot ishi hisoblanadi. Magistrant tomonidan bu muammoni hal etish bo`yicha quyidagi masalalar ko`rib chiqildi va takliflar berildi:

- viloyatni demografik rivojlanishi o'rganildi;
- viloyat aholi sonining o'sish dinamikasi o'rganildi va uning hozirgi rivojlanish yo`nalishlari aniqlandi;
- aholi tabiiy harakatiga tasir ko`rsatuvchi omillar aniqlandi;
- aholining hududiy tarkibidagi xususiyatlari o'rganildi;
- aholi tug'ilishini rejalashtirish muammolari o'rganildi;
- viloyat aholisining sifat ko`rsatkichlarini yaxshilashning asosiy yo'llarini belgilash maqsadida bir nechta tahlillar ishlandi;
- aholining tabiiy ko`payishini tahlil etish orqali fikrlar bildirildi va takliflar berildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Xorazm viloyati aholisining demografik vaziyatidagi o'zgarishlar bilan bog`liq masalalar ko`rib chiqilgan va

viloyat aholi soni prognoz qilingan. 2020 yilga Xorazm aholisi soni 1879,3 ming kishiga yetishi, fertil yoshdag'i xotin-qizlar sonining ortishi aniqlandi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz aholisini ijtimoiy-geografik va demografik jihatdan o'rganish masalalari bir nechta olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, ular O.Ata-Mirzaev, M.Burieva, M.Qaraxanov, I.Mullyadjanov, X.Salimov, A.Salievlar hisoblanadi. Quyi Amudaryo mintaqasi aholisi muammolari bilan esa Z.Abdalova, A.Qurbaniyozov, A.Sa'dullaev, E.Umarov, T.Tajimov, G.Xodjaeva, I.Atajonov, G.Utepova va boshqalar shug`ullanishgan.

Ushbu ishda aholini demografik vaziyatlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar viloyatning geoekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatiga bog`liq holda o'r ganilgan.

Umuman, mamlakat va uning ayrim viloyatlari aholisi, mehnat resurslari hamda ulardan foydalanishga oid masalalar mustaqillikkacha bo`lgan davrda tadqiqotchilarning diqqat markazidan chetda qolmaganligini ta`kidlash muhim. Shuni ham qayd qilish kerakki, bozor munosabatlari sharoitida, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni davom etayotgan hozirgi davrda mazkur muammolar hali etarlicha o'r ganilgan emas. Shu sabab, viloyat aholisining demografik vaziyatini o'r ganish maxsus ilmiy tadqiqotlarni talab etmoqda.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikalar tavsifi. Tadqiqot jarayonida geografik taqqoslash, tarixiy, hududiy tahlil, statistik-matematik, kartografik, tizim-tarkib va prognozlash usullaridan keng foydalanilgan.

Ushbu ishning metodologik asoslari mustaqillik davrida respublikada sodir bo`layotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi o'zgarishlarga qaratilgan takliflarga hamda ushbu masalalarga tegishli respublika rahbariyati tomonidan qabu qilingan qonun va ko`rsatmalar bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ekologik muammolar bilan bog`liq nazariy-uslubiy ahamiyatga molik geodemografik jarayonlarning asosiy ilmiy g`oya va qonuniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, bajarilgan tadqiqotning asosiy xulosa

va takliflari, statistik materiallari mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish da ahamiyatlidir.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalardan amalda qo`llanish imkoniyatlarining mavjudligida o`z aksini topgan. Tadqiqot natijalari, uning asosiy ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar tizimi kelajakda demografik rivojlanishni tartibga solishda, uning bilan bog`liq salbiy hadisalarni oldini olishda, Xorazm viloyati hokimligi, viloyat mehnat, aholini ish bilan ta`minlash va ijtimoiy himoyalash boshqarmasi, tumanlar mehnat birjalari va viloyat hududidagi bir qator korxonalarga o`z amaliy faoliyatlarida foydalanishi mumkin.

Ishning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan iborat. Ish 83 betni tashkil qiladi. Unda 7ta jadval, 2 ta xarita, 3 ta chizma va _6_ ta ilova mavjud bo`lib, uni bajarishda _58_ nomdagagi ilmiy adabiyotlar hamda boshqa manbalardan foydalanildi.

I BOB. AHOLI TAKROR BARPO BO'LISHINI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

I.1. Demografik jarayonlarni o`rganishning nazariy-uslubiy asoslari

Demografiya (qadimiy yunoncha “demos” – “xalq” va “grafo” – “yozaman” so’zlaridan) – aholi takror hosil qilinishining xususiyatlari, buning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy sharoitlar, migratsiyaga bog‘liqligini, aholi soni, hududiy joylashishi va tarkibini, ularning o’zgarishi va bu o’zgarishlarning sabab-oqibatlarini o’rganuvchi hamda ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiquvchi fandir.

Demografiya fanining **tadqiqot ob'ekti aholi** hisoblanadi. Lekin aholi faqat demografiya tomonidan emas, balki juda ko’p boshqa – tabiiy va gumanitar fanlar tomonidan ham o’rganilishini ta’kidlash lozim. Jumladan, iqtisodchilar kishilar o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni. ya’ni moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste’mol qilish bo'yicha munosabatlarni tadqiq etadilar. Huquqshunoslar aholi o’rtasidagi huquqiy munosabatlarni o’rganadilar. Etnologlar tadqiqotlari markaziga milliy va millatlararo munosabatlar, siyosatshunoslarda siyosiy munosabatlar, sotsiologlarda – kishilarning ijtimoiy hayot turli sohalaridagi hatti-harakatlari qo'yilgan. Bu ro'yxatni ancha davom ettirish mumkin. Bundan aholi juda ko’p fanlar uchun umumiylardan tadqiqot ob'ekti ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

“Demografiya” atamasini ilmiy muomalaga frantsuz olimi Axill (Ashiy) Giyyar kiritgan. U 1855-yilda Parijda chop etilgan “Inson statistikasi unsurlari yoki nisbiy demografiya” kitobida demografiyaga insonning tabiiy va ijtimoiy tarixi yoki aholini, uning o’zgarishini hamda jismoniy, fuqaroviylari va ahloxiylari shart-sharoitlari o’zgarishini matematika usullarida o’rganish, deb ta’rif bergan¹.

Nazariy demografiya - aholi takror barpo etilishining harakatlantiruvchi kuchlarini va iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va boshqa omillar bilan bog`liqligini

¹ Guillard A. Elements de statistique humaine ou demographic compare. Paris, 1855.

talqin etadi; takror barpo bo`lishi tartiblari taraqqiyotining, aholining takror barpo etilishi turlarining tarixiy tendentsiyalarini (tomonlarini) tushuntiradi; aholining takror barpo bo`lishining mohiyati va uning tarixiy jarayondagi o`rnini anglash uchun aholining jamiyat taraqqiyotidagi roli va iqtisodiy rivojlanish uchun ahamiyati haqidagi qarashlar alohida o`rinli bo`lib, ijtimoiy – iqtisodiy nazariyaga taalluqlidir. Aynan nazariy demografiya aholining takror barpo bo`lishi va undagi o`zgarishlarning, demografik mayl, shuningdek, demografik jarayonlar va aholi holatini o`zaro bog`lanishlarini tushuntiradi. Nazariy demografiya nazariyalarni ishchi gipotezalarni ta`riflashdan boshlab, to`plangan axborotni umumlashtirish va tahlil qilish kabi demografik jarayonlarning ilmiy o`rganilishining barcha bosqichlari uchun asos bo`lib xizmat qiladi, qonuniyatlarni nazariy tahlil qilishga asos yaratadi.

Aholiga demografiya nuktai nazaridan qaralishining o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Demografiya tarixi bu xususda uzoq vaqt davomida bahslar davom etganligidan dalolat beradi. Faqat XX asr o`rtalariga kelgandagina demografiya shunchaki aholi sonining dinamikasini, aholi tarkibi va joylashishining turlicha ekanligini va h.k.larni o`rganish bilan cheklanmasligi to`g`risidagi fikrga kelindi¹. Natijada **demografiya fanining predmeti aholining tabiiy takror hosil qilinishi qonuniyatlari**, ya`ni tug`ilish va o`lim jarayonlarida avlodlar almashishi orqali uning soni va tarkibi muttasil yangilanib borish jarayoni ekanligi, degan to`xtamga kelindi².

O`zbekiston Milliy entsiklopediyasida ham demografiya tushunchasiga xuddi shu nuqtai nazardan yondashilgan: “Demografiya – har yili turli sabablarga ko`ra vafot etgan aholi o`rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to`ldirib borish qonuniyatlarini ijtimoiy–tarixiy sharoitlarga bog`liq holda o`rganadigan fan”³.

Shuningdek, ilmiy adabiyotda ham ushbu masaladagi munozaralarga aniq nuqta qo`yilganicha yo`q. Masalan, demografiya fani bo`yicha umumetirof

¹ Веселкова И.Н. Теоретические основы демографии. //Демография: Учебник/ Под ред. Н.А. Волгина М., 2003.– с. 20.

² Медков В.М. Демография. Учебник. 2-е изд. –М.: ИНФРА-М, 2008.–С.22

³ Ўзбекистон Миллый Энциклопедияси. Т.3. - Т.: Ўзбекистон миллый Энциклопедияси, 2002.–248–6.

etilgan nufuzli darslik mualliflari G.S. Shroyk va J.S. Zigel tor va keng ma’nodagi demografiya o’rtasidagi farqqa urg‘u beradi. Ular tomonidan tor ma’nodagi demografiya aholi miqdori, joylashishi, tarkibi va ularning o’zgarishini o’rganadigan fan sifatida talqin etiladi. Bunda **miqdor** – aholi (kishilar) soni, **joylashish** – muayyan vaqtida aholining makondagi taqsimoti, **tarkib** – aholining tor ma’nodagi jinsi va yoshiga ko’ra taqsimlanishi, **o’zgarish** – umuman aholi yoki uning tarkibiy qismi soni o’sishi yoki kamayishidir. Keng ma’nodagi demografiya deganda esa mualliflar, shuningdek, ushbu fanning etnik, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari tadqiq etilishini tushunadilar¹.

Amerikalik olim U.Ayzard fikricha, u yoki bu hududning xo`jaligi murakkab jumboq bo`lib, uni echishni aynan aholi bo`g`inidan boshlamoq kerak. Darhaqiqat, aholi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir, u bilan ishlab chiqarish “boshdan oyoq”, chambarchas bog`liq².

Ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishi, uning rivojlanishi uchun aholi soni va uning muntazam o`sib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Binobarin, u yoki bu mintaqada aholi sonining ko`payishi va uning joylanishi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi bilan bir-biriga mos kelishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratadi. Aks holda, ushbu jarayonlar o`rtasidagi nomutanosibliklar qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois ham aholi soni, uning hududiy tarkibidagi o’zgarishlarni tadqiq qilish va uni prognoz qilish muhimdir. Hozirgi davrda, ushbu jarayonlarni o’rganishda aholi geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar va boshqa qator tarmoqlarning asosiy tadqiqot ob`ekti sifatida tutgan o`rni kattadir.

Aholini tadqiq qilish uning nazariyasiga tayangan holda sodir bo`ladigan jarayondir. Bu borada German Shubnel` shunday deb yozadi: “Aholini tadqiq qilish va uning nazariyasining rivojlanishi bir-biriga chambarchas bog`langan. Aholini tadqiq qilish o`zining nazariyasidan holi hozirgi erishgan yutuqlariga erisha olmasdi. O`z navbatida, aholishunoslik nazariyasi ham aholi tadqiqotlari

¹ Shryock H.S., Sigel J.S. The Methods and Materials of Demography. – N.Y., San Francisco. London. 1973.– P.I.

² Солиев А.С., Ахмедов Э.А. ва Махмадалиев Р.Й. Минтақавий иқтисодиёт. Тошкент, 2003.

asosi va natijalarisiz rivojlna olmaydi”. Shu nuqtai nazaridan har qanday mamlakat yoki mintaqqa aholisiga ta`rif berish, dastlab aholi soni va uning muayyan davr mobaynida o`zgarib borishini aniqlash va tadqiq qilishdan boshlanadi. Aholi sonining o`sishi esa uning u yoki bu hududda, tadrijiy o`zgarishidir. Jorj Barkleyning fikricha, aholi soning o`zgarishi, ya`ni uning ko`payishi ham, kamayishi ham “aholining o`sishi” deb ataladi. U aholi sonining ijobiy yoki salbiy o`sishi faqat uchta manbaga: tug`ilish, o`lim va migratsiya jarayonlariga bog`liq deb ta`kidlaydi¹.

Bu borada Ralf Tomlinson ushbu fikrni bildiradi: “aholi soni tug`ilish, o`lim va migratsiya omillari ta`sirida o`zgarib, bu jarayonga, birinchidan, ba`zilar mazkur mintaqada tug`iladi, ikkinchidan, mahalliy aholi ushbu hududda vafot qiladi, uchinchidan, ayrim aholi ko`chib keladi va, to`rtinchidan, mahalliy aholi o`zlarining hududidan ko`chib ketadi. Natijada, aholi soni o`sishi va joylanishining tahlili tug`ilish, o`lim, immigratsiya va emigratsiya jarayonlarini tadqiq qilishdan boshlanadi”.

Aholining tug`ilish va o`lim jarayonlari nisbatidagi farq uning tabiiy ko`payishidir. Aholining tabiiy ko`payishi ba`zi sabablarga ko`ra o`lganlar o`rnining yangi tug`ilgan aholi bilan, ya`ni bir avlodning ikkinchi avlod bilan almashinib, uning yangilanib takror barpo bo`lishidir. Demak, aholi sonining o`sishida tabiiy ko`payish manbasi hisoblanmish tug`ilishning o`limga nisbatan yuqori bo`lishi muhim ahamiyat ega. Tug`ilish esa, o`z navbatida, o`lim darajasiga qaraganda egiluvchan holatda bo`lib, uning ko`rsatkichlari vaqt nuqtai nazaridan doimo o`zgarib turadi.

Tug`ilish va o`lim biologik jarayondir, lekin ularga insonlarning turmush sharoiti, ta`lim va urbanizatsiya darajasi, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan demografik siyosati, nikoh va ajralishlar ko`lami, yoshlarning o`z oilalarini ongli ravishda rejallashtirishi va ularning har xil kontratseptiv vositalardan foydalanishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb

¹ Donald T. Rowland. Demographic Methods and Concepts. Copyright © 2003 by Donald T. Rowland. Oxford University Press. pp.546.

qilinganligi, aholining milliy va etnik tarkibi, shuningdek, diniy e`tiqodi hamda urf-odatlari kabi qator omillar katta ta`sir qiladi.

Aholi sonining o`sishida **ijtimoiy-iqtisodiy** omillarning o`rni katta. Masalan, butun dunyoda o`tgan asr o`rtalaridan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning yaxshilanib borishi aholi tug`ilishining o`sishiga olib kelgan bo`lsa, hozirgi kunda ushbu jarayon butunlay o`zgarib, u aholi turmush sharoitining yaxshilanishi tug`ilish sur`atining yuqori bo`lishiga emas, balki uning ko`rsatkichlarining kamayishiga ta`sir qilmoqda.

Qadimda go`daklar o`limining ko`pligi, oilada uning bir qismi tirik qolib, naslini davom ettirish uchun ko`p farzand ko`rishga harakat qilishgan. Shu sababdan o`sha davrda o`limining ko`p bo`lishiga qaramasdan, aholi soni tug`ilishning yuqori darajasi hisobiga doimo o`sib kelgan. O`tgan asrda tibbiyot va sanitariya xizmatining rivojlanishi, o`lim darajasining, ayniqsa go`daklar o`limining kamayishi “demografik revolyutsiya” ning vujudga kelishiga olib keldi. Shu bois, o`tgan asrning ikkinchi yarmida serfarzand oilalar soni ko`payib, keyinchalik tug`ilish sur`ati ham keskin kamaydi.

Ekologik omillarning tabiiy-ekologik, ijtimoiy-ekologik va boshqada turlari mavjud bo`lib, ular aholining o`sishi va joylanishiga ta`sir qiladi. Aholi sonining ko`payishi va turmush sharoitining tobora yaxshilanib borishi ularning tabiatga bo`lgan ta`sirining kuchayishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tabiiy muvozanat buzib, dunyoning qator mintaqalarida ekologik muammolarning vujudga kelishiga sabab bo`lmoqda. Shuningdek, urbanizatsiya darajasining o`sishi va sanoatning rivojlanishi bilan atmosferaga chiqarilayotgan sanoat va maishiy chiqindilari miqdori ortmoqda. Ekologik omil, o`z navbatida, umumiy va go`daklar o`limi, kasallanish darajasi hamda aholi migratsiyasining o`sishiga ta`sir qiladi.

Aholi tug`ilishiga **urbanizatsiya** jarayoni ham katta ta`sir qiladi. Chunonchi, shaharlarda, ayniqsa yirik shaharlarda aholi tug`ilish darajasi qishloq joylariga nisbatan past bo`ladi. Bunga shaharlarda ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb etilganligi va aholining shahar hayot tarzi sabab

bo`ladi. Biroq o`tgan asrda shahar aholisi salmog`i qishloq joylariga nisbatan tez o`sgan. Bu esa qishloq-shahar o`rtasidagi o`zaro migratsiya jarayonlarida shaharlarning ijobiy natijasi bilan ifodalanadi. Ishlab chiqarishning asosiy bo`g`ini shaharlarda mujassam bo`lib, ularni mehnat resurslari bilan ta`minlashda qishloq aholisi asosiy manba hisoblangan va shunday bo`lmoqda. Bu esa qishloq joylaridan shaharlarga doimiy yoki mayatnik migratsiyasida o`z aksini topgan.

E.Vandishning ta`kidlashicha, “har bir inson o`zining nerv faoliyati, temperament, xarakter, fikrlash, diqqat, xotirasi kabi psixik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi, bir-biriga o`xshamas, takrorlanmas individdir”. Shu bois, aholining tabiiy ko`payishi nafaqat ob`ektiv omillarga, balki **nikoh-oila** munosabatlari, o`zlarining xohish-istiklariga ham havoladir. Bunga misol sifatida hozirgi kunda yoshlarning o`z oilalarini ongli ravishda rejalahtirayotganligi va ularning har xil kontratseptiv vositalardan keng foydalanayotganligini keltirish mumkin. Bundan tashqari, tug`ilish darajasiga nikoh va ajralishlar miqdorining o`zgarishi ham katta ta`sir qiladi. Yosh oilalarda turur joy muammosi, yashash joyini o`zgartirishi, shuningdek, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb qilinganligi tug`ilish darajasining kamayishiga sabab bo`luvchi asosiy omillardan biridir. Bunday muammo va jarayonlar ko`p hollarda shaharlarga xosdir.

Tug`ilish darajasiga bevosita davlatning olib borayotgan demografik siyosati, ya`ni aholi orasida tug`ilishni tartibga solish maqsadida o`tkaziladigan targ`ibot-tashviqot ishlari, abort qildirishga ruxsat etilishi, mamlakatda tug`ilishni ko`paytirish yoki kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ham katta ta`sir qiladi.

Aholining milliy va etnik tarkibi hamda urf-odatlarining o`ziga xos xususiyatlari tug`ilish darajasining katta yoki kichik bo`lishida muhim ahamiyatga ega. Masalan, ko`pgina xalqlarda tarixan urf-odatlariga ko`ra ko`p farzand ko`rish hunuzgacha saqlanib kelmoqda. Ushbu holat yaqin yillargacha

mamlakatimiz mahalliy aholisi uchun xos bo`lib kelgan. Lekin, yuqorida keltirib o`tilgan omillar natijasida aholining o`sish sur`ati ancha kamayib ketdi.

Demak, aholi takror barpo bo`lishi qator omillar ta`sirida sodir bo`ladi. Bu borada Ya.I.Rubin shunday deb yozadi “Jinsiy instinkt, farzand ko`rish qurbi, yangi tug`ilgan chaqaloqlarning jinsiy nisbati, balog`atga etilish, fertil` davrining uzoqligi va genetik qonuniyatlar muayyan tarzda aholi takror barpo bo`lishida muhim ahamiyatga kasb etadi”. Shuningdek, aholining yosh-jins tarkibi ham tug`ilish darajasiga katta ta`sir qilib, jami aholi sonida erkak, yosh yoki yoshi katta ayollar ulushining ko`p bo`lishi aholi tug`ilish jarayonning past bo`lishiga olib keladi.

Aholi sonining o`sishi va takror barpo bo`lishida migratsiya, ayniqsa tashqi migratsiyaning ahamiyati katta. Aholi migratsiyasi nafaqat aholi sonining o`sishi yoki tabiiy ko`payishiga, balki uning hududiy taqsimlanishi, joylanishiga, aholining yosh-jins, milliy va ijtimoiy tarkibining o`zgarishiga ham olib keladi. O`z navbatida, ushbu jarayonning sodir bo`lishiga u yoki bu hududda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar sabab bo`ladi. Shuningdek, aholi migratsiyasi mintaqaning tabiiy sharoiti va ekologik vaziyatiga ham bog`liqdir. Ekologik vaziyatning tabiat va inson salomatligiga salbiy ta`siri oqibatida bunday muammoli hududlardan aholi ko`chib ketishiga majbur bo`ladi.

Aholi sonining o`sishiga **ma`muriy-hududiy** chegaralarning o`zgarishi, shuningdek, urushlar ham ta`sir qiladi. Masalan, Ikkinci jahon urushi davrida aholi o`limining ko`p bo`lishi, o`sha davrda tug`ilishning kamayishiga, bu esa, o`z navbatida, mazkur jarayonning bir necha yillardan keyin yana qisqarishiga olib keldi. Ushbu holat shu tahlidda bir necha marta to`lqinsimon tarzda takrorlanib, uning tasiri kamayib boradi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, aholi sonining jadal sur`atda o`sishiga o`limining tug`ilishga nisbatan tez qisqarishi sabab bo`ldi. O`tgan asrning 50-80 yillar o`rtalarida tug`ilish 80 foizga, o`lim ko`rsatkichi ikki barobarga qisqargan. Shu bois, “demografik to`lqin”, ya`ni aholi tabiiy ko`payishining asosiy ikkita ko`rsatkichlari orasidagi tafovut 60-yillar o`rtalariga kelib o`z cho`qqisiga etdi.

Aholi soni o'sishining tahlili matematik va statistik hisob kitoblarni talab qilib, unda aholi ro`yxati va statistik ma`lumotlarga murojaat etiladi. Odatda, aholi ro`yxati dunyoning ko`pgina davlatlarida har 10 yilda, ayrim davlatlarda esa har 5 yildan muntazam ravishda o`tkazilib boriladi va olingen ma`lumotlar aholini o`rganishda qulaylik va engilliklar yaratadi. Aholi ro`yxati bo`lmagan taqdirda, har yili yig`ib boriladigan statistik ma`lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, hozirgi kunda aholini tadqiq qilishda sotsiologik usuldan ham keng foydalanadi. Ushbu usul ko`p hollarda statistik ma`lumotlar to`liq bo`lmagan taqdirda yoki aholini prognoz qilishda ular fikrlarini o`rganishda qo`llaniladi.

Aholi sonining o`sishi muayyan ikki davr oralig`ida uning sonining tadrijiy o`zgarishidir. Aholi sonining o`sishiga tabiiy ko`payish va uning migratsiyasi ta`sir qiladi. O`z navbatida, ushbu jarayonlar aholi joylanishi, hududiy qayta tarqsimlanishiga olib keladi. Aholi joylanishi hududning kishilar tomonidan o`zlashtirilishi bilan bog`liq bo`lgan juda uzoq tarixiy jarayonlar natijasidir. Turli mamlakatlarda aholining joylanishi va zichligi tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va tabiiy omillar ta`sirida vujudga kelgan. Bunday omillar dunyoning turli qismlarida hududiy va vaqt nuqtai nazaridan bir xil bo`lmaganligi, qit`a, mamlakat, hatto ularning ayrim qismlarida aholi joylashuvi va uning zichlik ko`rsatkichlarida katta tafovutlar mavjudligiga olib kelgan.

Aholi joylanishiga asosan tabiiy muhit (re`lef, iqlim, tuproq, qazilma konlarning mavjudligi va h.k.) sabab bo`ladi, ammo bu jarayonga mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darjasini kabi omillar ham ta`sir qiladi. Tabiiyki, aholi joylashuvi va aholi manzilgohlarining shakllanishi va rivojlanishi insoniyat taraqqiyoti, hududiy mehnat taqsimotidagi o`zgarishlar bilan chambarchas bog`liq. Ayniqsa, sug`orma dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi aholining o`troqlashuviga, ular yashaydigan joylarning muntazamlashuviga sabab bo`lgan. Keyinchalik jamiyat rivojlanishi bilan qishloq xo`jaligida yirik sug`orish inshoatlarining qurilishi va ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar aholining guruh-guruh bo`lib yashashiga, jamoa, E.B.Alaev bo`yicha “sotsium”

shakllanishiga olib kelgan. Bu esa o`z navbatida, doimiy aholi yashaydigan joylarning tobora yiriklashib, shaharlar vujudga kelishiga olib kelishiga asos bo`lgan. Bundan xulosa qilish kerakki, aholi manzilgohlari ichida qishloq aholi manzilgohlari tarixiy, ya`ni qadimiy bo`lib, shaharlar taraqqiyotiga nisbatan ancha uzoq davrni o`z ichiga oladi. Ularning rivojlanishi eng avvalo erdan, tabiiy-iqlimi (agroiqlimi) resurslardan foydalanish bilan aloqador bo`lgan.

Hozirgi kunda xalq xo`jaligining ko`plab tarmoqlarida o`sib borayotgan aholi sonini prognoz qilish katta ahamiyatga ega. Aholi sonini prognoz qilishning oddiy va eng keng qo`llaniladigan usullaridan biri **ekstrapolyatsiyadir**. Bu usulni birinchi bo`lib, ingliz demografi M.Grinvud 1925 yili Angliya aholisining tug`ilishini prognoz qilishda qo`llangan.

Sobiq Ittifoq hududida aholi sonining o`sishi va tarkibi bo`yicha ilk prognoz e.Tarasov va S.G.Strumilinlar boshchiligidagi 1921 yilda o`tkazilgan. Mamlakatimizda dastlabki aholi prognozi M.Q.Qoraxonov rahbarligida 1962-1980 yillarda ishlab chiqilgan. Keyingi yillarda ushbu masalalar bilan I.R.Mullajonov, R.N.Ubaydullaeva, N.S.Aliqoriev, O.B.Ota-Mirzaev, A.A.Qayumov, M.R.Bo`rieva, L.P.Maksakova va boshqalar shug`ullangan.

Ekstrapolyatsiya usuli aholining tarixiy retrospektiv ma`lumotlariga asoslangan holda hisoblanadigan matematik modeli sifatida oddiy, murakkab va nisbiy ekstrapolyatsiya usullaridan iborat. Oddiy ekstrapolyatsiya aholini prognoz qilishda eng qulay va oson usul bo`lib, o`z navbatida uning o`zi ham chiziqli, geometrik va eksponentsiyal usullarga bo`linadi. Bu usulni amalgamoshirishda faqat tadqiq qilinayotgan mintaqaning yaqin o`tgani davrdagi ma`lumotlari asos qilib olinadi. Aholini prognoz qilish chog`ida uchrashadigan asosiy muammolardan biri, uning ko`rsatkichining doimo o`zgarib turishidir.

Aholi prognoziga tug`ilish va o`lim ko`rsatkichlarining o`zgarishi, shuningdek, tashqi migratsiya jarayonlari katta ta`sir qiladi. Bu esa aholi prognozida aniqlik darajasining vujudga kelishiga olib keladi. Shu bois, aholini prognoz qilishda uning ko`p variantlarini ishlab chiqish, qisqa muddatga prognoz qilish va tug`ilish, o`lim hamda migratsiya

jarayonlarini chuqur tahlil qilish aholi sonining aniqroq natijalarini beradi.

Aholining o'sishi va joylanishi masalalarini iqtisodiy geografik jihatdan tadqiq etishning bir necha yo`nalishlarini ko`rsatish mumkin. Ammo muhimi shundaki, bu yo`nalishlarni bir-birlari bilan uyg`unlashgan holda olib borish hamda ma`lum bir qit`a, mamlakat yoki mintaqalar ichida hududiy tafovutlari va xususiyatlarini aniqlash katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

I.2. Aholini rivojlantirishning mintaqaviy milliy siyosati

Barchaga ma`lum bo`lganidek, hozirgi mustaqillik sharoitida, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatga o'tish davrida demografik vaziyat katta ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlarning o'zbek modeliga o'tish har tomonlama usha joyda yashovchi millatning milliy mentalitetini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shu sabab mamlakatimiz Prezidenti rivojlanish strategiyasining ustuvor tamoillaridan biri sifatida demografik sharayatlarni etiborga olish hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarning amalga oshishi mamlakatda olib boriladigan demografik siyosat bilan chambarchas bog`liq kechadi.

Ijtimoiy siyosat – umumiyligi milliy davlat siyosatining ahamiyatli bo'limleridan biri hisoblanib, o'ning tarkibidan milliy iqtisodiy siyosat, tashqi siyosat, milliy xavfsizlik siyosati, ilmiy–texnik, ekologik v.h.k. ajralib chiqadi.

Shuningdek, ijtimoiy siyosatning o'zi ham alohida murakkab bir tizimnan tashkil topib, u ta`lim, salomatlikni saqlasib, oila, yoshlar siyosati, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga yo`naltirilgan milliy siyosat h.k. o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining bu ijtimoiy siyosat tizimida ahamiyatli o'rinni va rolni uning diqqat markazida odam turgan aholining milliy siyosati egallaydi. Mustaqil O'zbekistonning umumxalq davlat siyosatining strategik maqsadi elning milliy o`yg`onishidan iborat bo`lsa, aholi milliy siyosatining vaziyfasi uning sifat *tomonidan* rivojlanishidan iborat bo`ladi.

«*Sifat tomonidan rivojlanish*» tushunchasi o`z ichiga ko`p ma`noni oladi. Respublikamiz demograf olimlari o`z ilmiy ishlarida bu tushunchaga bog`lik ko`p fikr va ma`nolarni ochib berishga harakat qilgan. Shulardan eng ahamiyatlilari quyidagilardan iborat:

- aholi salomatligini holati, ona, bola va umumiyligi aholi o`limi darajasi;
- aholini o`rtacha yashash yoshi uzoqligi;
- aholining bilim darajasi va uning tarkibi;
- aholining kaspiy–texnik rivojlanish darajasi va tarkibi;
- aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy harakatchangligi;
- aholi bantligi holati va uning tarmoqlik strukturasi;
- aholining urbanizatsiyalanish darajasi;
- aholining xududiy harakatchangligini xarakteri va intensivliligi;
- aholining adoblilik, ma`naviy va milliy madaniyati;
- milliy qadriyatlar, oila–turmush urf odatlari, milliy urf–odatlar va ularning saqlanishi;
- umuminsoniylik boyliklarni saqlash.

Yuqorida ko`rsatilgan ta`rif boyicha O`zbekiston aholisini sifat jihatidan tahlil qilish respublikada bu masala bo`yicha sovet kolonial tuzimi tomonidan qoldirilgan murakkab muammolarning uchrashishini ko`rsatadi.

O`zbekistonda jahon ko`rsatkichlariga nisbatan ona va bolalar o`limining yuqoriligi, o`rtacha yashash yoshi uzoqligining qisqa, aholi salomatligining nisbatan past ekanligini aytib o`tish kerak. Aholining o`rtacha umir ko`rish yoshi mamlakatimizda 74-75 yosh bo`lib, u jahonning rivojlangan mamlakatlariga nisbatan 5–6 yoshga past. Bu ko`rsatkich Yaponiyada 80 yosh, Frantsiyada 79 yosh, Shvetsiyada 78 yoshni tashkil qiladi.

O`zbekistonda erkaklar orasida o`rtacha yashash yoshi ayollarga nisbatan past bo`lib, 68–69 yoshga to`g`ri keladi.

Mamlakatimizning asosiy mahalliy aholilari (o`zbeklar va qorakalpoqlar) past urbanizatsiyalasrgan. O`zbek millati vakillerining ko`pchiligi (80 %dan

ortiq) hozirgacha qishloq joylarda istiqomat qilib, qishloq xo`jaligi ishlari bilan shug`ullanib kelmoqda (Qoraqalpoqlarning urbanizatsiyalanishi 30 % ga yaqin).

O`zbekistonda ittifoq davrida deyarli milliy ishchi sinf mahalliy aholidan tuzilmadi. Yuqori malakali kadrlar faqat ayrim imkoniyati cheklangan sohalar buyicha, ya`niy qishloq xo`jaligi, ta`lim, sog`liqni saqlash sohalari bo`yincha gina taylorlangan. Oliy va ilg`or texnologiya sohalari (elektronika, radio va teletexnika, hisoblash va robottexnikalari, kosmos texnikalari va h.k.) bo`yincha milliy kadrlar taylorlash to`g`risida so`z ham bo`lmadi. Bundan tashqari shovinistik ideyalar hukmronlikq etib, O`rta Osiyoning mahalliy aholi qishloq xo`jaligi ishlari, savdo ishlariga qobiliyatli, industrial ishlariga esa qobiliyat etishmaydi dep qaralib kelingan. Shu sabab, respublikanin' urbanizatsiyalashishi va sanoatning rivojlanishi ko`pincha (kichik va chekka mintaqalardagi shaharlarni hisobga olmagan holda) chetdan kelgan evropalik aholi va olib kelingan ishchi kuchlar hisobidan amalga oshirilgan¹.

«*Aholining milliy siyosati*» tushunchasi respublika demograflari tomonidan mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy mustaqillikga erishganidan so`ng gina foydalanila boshladi. Sovet ittifoqida O`rta Osiyo aholisining mintaqaviy siyosati yagona umumittifoqlik demografik siyosatning bir qismi sifatida so`z etilgan.

O`zbekiston aholisining sifatli rivojlanishini oshirish mamlakatimizning milliy tiklanish ta`minlashdagi ahamiyatli masalalardan biri hisoblanib, u faqat ilmiy asoslangan milliy siyosat asosida gina amalga oshishi mumkin. Uning asosiy tamoillari quyidagilardan iborat:

- mamlakatdagi demografik vaziyatni, kompleks ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va siyosiy kategoriyalardagidek chuqr tahlil va uzliksiz monitoring olib borishga tayanish;
- mamlakatimizdagi demografik jarayonlarni hukumat tomonida faol tartipga solish;

¹ Ata-Mirzaev O.B., Kayumov A.A. Narodonaselenie Uzbekistana: demograficheskaya situatsiya, politika, ekologiya. J. Ekonomika i statistika. 1995, N 5

– ko’p millatli O’zbekiston aholisini tez sura’t bilan rivojlantirish uchun asosiy millat vakillari – o’zbek va qoraqolpoqlarning milliy odatiy oila turmush tarsi, manaviy meroslari, urf odatlari va diniy e’tiqodlarini (musulmon) h.k

– olianing demografik ehtiyojlarini qondirish uchun uning ichki sharoitlariga aralashmagan holda kerakli imkoniyatlarni yaratish.

O’zbekiston aholisining **milliy siyosati** – mamlakatdagi demografik vaziyatning ilmiy asoslangan bahosi va monitoringi asosida ishlab chiqilmoqda.

Demografik vaziyat biz tomondan mamlakat aholi soninining o’sish dinamikasini tariflovchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va siyosiy jarayon sifatida qaralib, uning asosiy manbalari esa aholining tabiiy ko’payishi va aholining oilaviy tarkibi, migratsiyasi, aholi joylashishi, urbanizatsiya darajasi va ijtimoiy tarkibi va mehnat resurslari va uning bandlik darajasi va h.k hisoblanadi.

Demografik vaziyat – bu murakkab tushuncha bo’lib, u ko’pchilik bir-biri bilan bog’liq iqtisodiy siyosiy, psixologik va ma’muriy–boshqarish omillari orqali aniqlanadi.

Demografik vaziyat aholining takror barpo bo’lishi bilan bog’liq bo’lgan shaxsning, oilaning, ijtimoiy-demografik guruhlar va mamlakatning barcha aholi harakatining bir bildiradi.

O’zbekiston Respublikasining aholi bilan bog’liq milliy siyosati respublika asosiy aholisi bo’lgan o’zbek va qoraqalpoq oilalaridagi barcha milliy o’zgachaliklarga har tomonlama tayangan holda amalga oshirish zarur. Shuningdek, O’rta Osiyoning boshqa millatlarining milliy urf-odatlari va dasturlarining o’ziga xosligiga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

Hozirgi vaziyatda O’zbekistondagi vujudga kelgan murakkab demografik vaziyat faol demografik siyosat yurgizishni talab etadi. Bu siyosat respublikada asosiy demografik jarayonlarni, shuningdek tug’ilish, migratsiya, urbanizatsiya, aholi bandligi masalalarini ilmiy asosda olib borishni talab etadi.

Bunda demografik talablarni amalga oshirishda har bir oila va yakka shaxsning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga asoslanish lozim. Mamlakat

aholining demografik talaplarini qondirishda unga milliy millat siyosatini tushuntirish va uni amalga oshirishga sharoit yaratish kerak.

Milliy millat siyosati bir–biri bilan bog’liq bir nechta qismlardan iborat bo’lib, ulardan asosiyilari quyidagilardan iborat:

—aholining tug’ilishi va tabiiy ko’payishini rejalashtirishda–ona va bolalarning salomatligini mustahkamlashga, o’rtacha yashash yosh uzoqligini orttirishga, millatning salomatligini yaxshilashga yo’naltirilgan milliy demografik siyosat yurgizish;

— asosiy millatlarning-hududiy harakatini orttirish va tashqi migratsiyani tartiblashtirish maqsadida aholi ko’chib yurishi bo’yicha milliy siyosati;

— asosiy millatlarning milliy dasturlar, oila-turmush tarzi va milliy o’zgachaliklarini hisobga olib ularning urbanizatsiyalanish darajasini bir muncha yuqorilatishga yo’naltirilgan milliy siyosat;

— ishsizlikni bartaraf etish aholini bandlik tarkibini yaxshilash, hozirgi zamon yuqori texnologiyalari bilan ishlovchi mahalliy yetuk mutaxassislarni tayyorlash bo’yicha milliy siyosat h.k.¹

Yuqorida ko’rib chiqilgan O’zbekistonning milliy millat siyosatining asosiy tamoyillari, maqsadi va mazmuni uning mintaqaviy siyosati asosida yaratiladi. Shuningdek, respublika aholisi mintaqaviy siyosatini o’ziga xos o’zgachaliklari mavjud bolib, ular katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Bizlar tomondan O’zbekiston aholisining mintaqaviy siyosatida quyidagi tamoyillar ajratilgan;

— respublikaning demografik vaziyatidagi mintaqaviy farqlarini har tomonlama hisobga olish;

— aholi muammolarini o’rganishga kompleksli, tizimli yondashish va ularni mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va ekologik sharoitlarini hisobga olib ko’rib chiqish;

¹Ata-Mirzaev O.B., Kayumov A.A. Narodonaselenie Uzbekistana: demograficheskaya situatsiya, politika, ekologiya. J. Ekonomika i statistika. N 5, 1995

- aholining demografik vaziyatini, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik turmush sharoitida chuqur hududiy va ichki mintaqaviy farqlari tahliliga suyanish;
- mintaqaga aholisining etnik tarkibiga, ayniqsa kam sonli millat vakillarining demografik talablariga e’tibor qaratish;
- mintaqalar aholisining sifat jihatidan rivojlanishning asosiy muammolarining amaliy yechimiga yo’naltirish.

O’zbekistonning demografik vaziyatini belgilovchi umumiylig xos bo’lsa ham katta mintaqaviy farqlar mavjud. Uning asosida respublika mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sharoiti birdek emasligi bilan aniqlanadi.

Bu holatda aholini rivojlantirishning mintaqaviy dasturini, ayniqsa demografik, migrantsion siyosat va aholi bandligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda hisobga olinishi zarur.

Masalan, bugungi kunda faol aholi siyosatini Qoraqalpag’istonda, Surxandaryo viloyatining Sariosiyo tumanida va Xorazm viloyatida olib boorish zarur. Sababi, bu mintaqalarda ekologik inqiroz vaziyati vujudga kelgan bo’lib, u o’z navbatida demografik vaziyatga ham ma’lum darjada ta’sir ko’rsatmoqda.

Bu vaziyat Qoraqalpog’iston va Xorazm viloyatida Orol dendizining qurishi bilan va ichimlik suvi sifatining yomonlashshi, Sariosiyoda Tojikistonning Tursunzoda va Regar alyuminiy zavodlarini atrof muhitni ifloslanishi bilan kelib chiqqan. Toshkent mintaqasida bu siyosatni olib borish faqat ekologik vaziyat emas, aholini ko’p millatliligi va shahar aholisining yuqori mujassamlashuvi va h.k.lar bog’lik holda amalga oshirish lozim.

Farg’ona vodiysi mintaqasida mintaqaviy demografik siyosat olib borishda aholining juda yuqori zichlikga egaligini va ularning diniy faolligini hisobga olish zarur bo’ladi.

Samarqand va Buxoro viloyatlarida mintaqaviy siyosat yurgizishda ularning milliy tarkibining o’ziga xosligini hisobga olish va h.k.

O’zbekistonda mintaqaviy milliy siyosat olib borishda respublikada kamchilikni tashlik etuvchi millatlarning (tojiklar, qozoqlar, qirg’izlar,

turkmanlar, uyg'urlar, koreslar h.k.). demografik talaplariga juda e'tiborli bo'lish talab etiladi.

Mintaqalarda milliy aholi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va ekologik sharoitlari bilan bog'lik xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi.

Aholining mintaqaviy muammolarini kompleksli tahlil etish har bir mintaqa aholisining rivojlanishining amaliy vazifalarini aniqlashda katta rol o'yinaydi.

Shuningdek aholini mintaqaviy siyosati mintaqa ichidagi demografik, aholi turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va ekologik vaziyatining mikrohududiy darajasida chuqur tahlilga suyanadi. Masalan, O'zbekiston milliy aholi siyosatining asosiy maqsadi bo'lgan – qishloq ma'muriy tumanlari darajasigacha tadqiq etish.

O'zbekistonning mintaqaviy milliy aholi siyosatida bu ilmiy tamoyillarni qo'llash mamlakat va uning mintaqalari aholisining qisqa va uzoq muddatli keljakda rivojlanishining taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda keng qo'llanish mumkin.

II BOB. XORAZM VILOYATINING HOZIRGI ZAMON DEMOGRAFIK JARAYONLARI

II.1. Xorazm viloyat aholisining tadrijiy o`sishi, rivojlanishi va joylashish xususiyatlari

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng mamlakatimizda bozor munosabatlariga qaratilgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar olib borilmoqda. Ushbu davrda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ba`zi qiyinchilik va muammolar yuz berib, ular demografik jarayonlarini ham o`z ichiga qamrab oldi. Binobarin, demografik jarayonlar mintaqaviy xususiyatlarga ega va bu jihatdan Xorazm viloyati aholida ahamiyatga ega. U aholi sonining o`sishi, joylanishi: tabiiy ko`payish, tashqi va ichki migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya darajasi kabi xususiyatlarida o`z aksini topgan.

So`ngi yillarda Xorazm viloyatida geodemografik jarayonlar ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasida birmuncha o`zgarib bormoqda. U tabiiy ko`payish darajasining kamayib borishi va tashqi migratsiya sal`dosining salbiy tomonga o`zgarishi natijasida aholi soni o`sish sur`atining tobora pasayib borayotganligini o`zida namoyon etuvchi “demografik o`tish” davrini boshdan kechirmoqda. Ayni chog`da ushbu jarayon mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o`tishi bilan bir davrda sodir bo`lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir. Shu bilan birga, mintaqadagi geoekologik vaziyat mavjud muammolarni majmuali tadqiq etish va ilmiy asoslab berishni taqozo qiladi.

Aholi o`sishi va joylanishi masalalarining iqtisodiy geografik nuqtai nazardan ma`lum bir mintaqa, mamlakat va viloyatlar doirasida uyg`unlashgan tarzda tahlili ulardagi hududiy tafovutlarni, xususiyatlarni yanada yaqqol ifodalaydi.

Mamlakat, region yoki viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uning aholisi soni, joylanishi va tarkibi, tadrijiy o`zgarishi bilan uzviy bog`liqdir. Binobarin, aholi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo`lishi bilan bir vaqtida, u

yaratilgan moddiy boyliklarning asosiy iste`molchisi hamdir. Shu sababli u ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining eng muhim bo`g`inida turadi.

Aholiga xos jarayonlarni o`rganishda uning tadrijiy o`zgarishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu jarayon orqaligina aholi harakat turlarining holati, miqyosi va natijalari ko`zga tashlanadi. Ular esa o`z navbatida mamlakat yoki regiondagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-demografik vaziyatlarning o`zgarishi bilan chambarchas bog`langandir. Demak, aholining tadrijiy o`zgarishi jamiyatning rivojlanishi va unda bo`lib o`tayotgan o`zgarishlarga muayyan darajada bog`liqdir, deb xulosa qilish mumkin.

Xorazm aholisi sonining o`sish sur`atlari va joylanish xususiyatlariga ko`ra O`zbekistonning o`ziga xos viloyatlaridan biridir. Ma`lumki, so`nggi yillarda mamlakat aholisining o`sish sur`atlarida barqaror ravishda birmuncha pasayish kuzatilmogda. Bu jarayon mustaqillik yillarida yanada yaqqolroq ko`zga tashlanmoqda. Masalan, respublika bo`yicha aholining o`rtacha yillik o`sish sur`atlari 1979-1989 yillar oralig`ida 2,6 foizni tashkil qilgan bo`lsa, 1991-2016 yillarda esa 1,9 foizni tashkil etdi (1-jadval).

Statistik ma`lumotlariga qaraganda Xorazm viloyati aholisi 2016 yil 1 yanvar holatiga ko`ra, 1747,0 ming kishini tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich 1979 yili 747,0 ming kishiga teng bo`lib, u 1,0 mln kishiga ko`paygan. Uning o`rtacha yillik ko`payishi 2,0 foizga teng bo`lgan. 1979-2016 yillarda aholi soni shaharlarda 150,0 mingdan 565,5 ming kishiga, uning o`rtacha yillik ko`payishi 3,1 foiz, qishloq joylarida esa u 597,0 mingdan 1181,5 ming kishiga o`sib, uning o`rtacha yillik ko`payishi 1,8 foizni tashkil etgan. Xorazm viloyatida esa, mamlakatdagi umumiy vaziyatdan farqli o`laroq, aholiga xos jarayonlar, shu jumladan uning tadrijiy o`zgarishi o`zining nisbatan barqaror darajasini saqlab kelmoqdaki, bu viloyatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog`liqdir.

Statistik ma`lumotlar asosan so`nggi 25 yil (1991-2016) ichida Xorazm viloyati aholisi salkam 163,5 foizga ko`paygan (Qoraqalpog`iston Respublikasida bu ko`rsatkich 141,2 foizga teng). Bu davr ichida O`zbekiston

Xorazm viloyati aholisining o'sish sur`atlari

	1979 y	1989 y.da 1979 y.ga nisbatan	O'rtacha yillik o'sish, %da	1991 y.da 1979 y.ga nisbatan	O'rtacha yillik o'sish, %da	2016 y.da 1991 y.ga nisbatan	O'rtacha yillik o'sish, %da
O`zbekiston bo`yicha jami	<u>15391*</u> 100,0	<u>19905</u> 129,3	2,6	<u>20702</u> 134,5	2,5	<u>32576</u> 157,3	1,8
Shahar aholisi	<u>6378</u> 100,0	<u>8111</u> 127,1	2,4	<u>8375</u> 131,3	2,3	<u>15964</u> 190,6	1,2
Qishloq aholisi	<u>9043</u> 100,0	<u>11794</u> 130,4	2,7	<u>12327</u> 136,3	2,6	<u>15612</u> 126,6	0,9
Xorazm viloyati bo`yicha jami	<u>747</u> 100,0	<u>1015</u> 135,8	3,1	<u>1068</u> 142,9	3,0	<u>1747</u> 163,6	1,9
Shahar aholisi	<u>150</u> 100,0	<u>281</u> 187,3	6,5	<u>292</u> 194,6	5,7	<u>565,5</u> 193,5	2,6
Qishloq aholisi	<u>597</u> 100,0	<u>734</u> 122,9	2,0	<u>776</u> 129,9	2,2	<u>1181,5</u> 152,2	1,7

Jadval O`zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika departamenti ma`lumotlari asosida tuzildi.

* Suratda mutlaq ko`rsatkich, ming kishi hisobida, maxrajda nisbiy ko`rsatkich, foizda.

aholisidagi o'sish 152,1 foizni tashkil etdi. Bundan ko`rinadiki, regionda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyat murakkab bo`lsa ham, uning demografik salohiyati nisbatan yuqoriligidcha qolmoqda. Demak, Xorazm viloyatida aholiga xos ko`rsatkichlar so`nggi yillarda ham o`zining nisbatan barqaror holatini saqlab kelmoqda.

Demografik vaziyatni tahlil qilish shuni ko`rsatmoqdaki, butun mamlakatga xos bo`lgani kabi aholining o'rtacha yillik o'sish sur`atlarining pasayib borish jarayoni ayni vaqtda, Xorazm viloyatiga ham tegishlidir. 1979-1989 yillarda viloyat aholisining o'sish sur`ati 3,1 foizga teng bo`lgan bo`lsa, 1995-2016 yillarda u 1,9 foizni tashkil etdi. Aholi o'sish sur`atlarining nisbatan pasayib borayotganligiga yuqorida ko`rsatilgnidek Orolbo`yidagi murakkab ekologik vaziyatning ham muayyan darajada ta`siri bor.

Aholi dinamikasi shahar va qishloq aholisining o'sish sur`atlarida o'z aksini topadi. Bunda, albatta, shahar va qishloq aholisining jami aholi sonidagi salmog`i muhim o`rin egallaydi.

Xorazm mamlakatimizning urbanizatsiya darajasi eng past bo`lgan viloyatlaridan biri. 2016 yil 1 yanvar` ma`lumotlari bo`yicha jami aholining 32,3 foizi (2001 yilda 23,6 foiz edi) shaharlarda yashaydi (respublikada 51,4%). Demak, viloyat aholisi dinamikasiga shahar aholisining o'sish sur`atlari sezilarli ta`sir ko`rsatmaydi. 1-jadval ma`lumotlaridan ko`rinadiki, O`zbekistonda shahar aholisining o`rtacha yillik o'sish sur`atlari 1979-1989 yillarda 2,4 foizni tashkil etgan bo`lsa, 1991-2016 yillarda bu ko`rsatkich 2,5 foizgacha (2009 yilda yirik qishloqlarga shaharcha, shaharchalarga esa shahar maqomi berilishi natijasida) ortib borgan. Ana shu davrlarda mazkur jarayon Xorazm viloyatida aksincha pasaygan, bu ko`rsatkichlar mos ravishda 6,5 va 2,6 foizni tashkil etgan (bundan ham past bo`lishi mumkin edi). Bunda ma`muriy o`zgarishlar va aholi migratsiyasi ma`lum darajada ahamiyatga ega bo`lgan. Shunga qaramasdan, viloyatda shahar aholisining ko`payish sur`atlari 1979 yilga nisbatan respublikadagi o`rtacha ko`rsatkichdan bir oz yuqoridir. Viloyatda shahar aholisining mutlaq soni 1979-2016 yillar mobynida 3,8 martaga ko`paygan bo`lsa, mamlakat bo`yicha ushbu ko`rsatkich 2,5 ga teng bo`ldi.

Xorazm viloyatida 80-yillarda yangi shaharlar va shaharchalar vujudga kelishi munosabati bilan urbanizatsiya jarayoni faollashgan edi. O`sha darlarda viloyat shahar aholisining o`rtacha yillik o'sishi 6,5 foizni tashkil qilganligi jadvaldan ko`rinadi. 80-yillardan keyingi davrda shahar aholisi o'sish sur`atlarining pasayib borishi 6 ta shaharchaning (Gurlan, Qo`shko`pir, Hazorasp, Shovot, Xonqa, Yangibozor) o`z maqomi darajasidan tushirib qo`yilishi bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtida Xorazm viloyati shaharlar soni bo`yicha O`zbekiston Respublikasida eng oxirgi o'rinda turadi. Bu erda 3 ta shahar (Urganch, Xiva, Pitnak) bor, xolos.

So`nggi yillarda viloyatda shahar aholisining o`sish sur`atlari sezilarli darajada pasayib, qishloq joylarda demografik taraqqiyotning birmuncha faollashgani kuzatilmoqdaki, bu jarayon butun respublika uchun ham xosdir.

1991-1995 yillarda O`zbekistonda qishloq aholisining yillik o`sish sur`atlari 2,8 foizni tashkil etgani holda, Xorazm viloyatida bu ko`rsatkich 3,7 foizga teng bo`ldi. 1991-2016 yillarda esa mamlakat qishloq aholisining yillik o`sish sur`atlari 0,9 foizga teng bo`lgan bo`lsa, viloyatda bu ko`rsatkich 1,7 foizni tashkil etdi.

Viloyat aholisi sonining o`sishi asosan uning tabiiy harakati hisobiga amalga oshib kelgan. Lekin so`nggi yillarda mamlakatning boshqa viloyatlaridagi kabi, bu erda ham tug`ilish umumiy koeffitsientlarining pasaya borayotganligi kuzatilmoqda. Viloyatda 2000 yilda har 1000 kishi hisobiga tug`ilish 24,0 kishini, 2000 yilda 22,9 kishini tashkil qilgan. O`zbekiston bo`yicha esa bu ko`rsatkichlar mos ravishda 21,3 va 23,0 kishiga tengdir.

Xorazm viloyati aholisi tabiiy o`sishida yuqori darajadagi tug`ilish an`anaviy bo`lgan qishloq aholisining roli katta bo`lib kelgan. Biroq, tadqiqotlarimiz shuni ko`rsatmoqdaki, butun Quyi Amudaryo mintaqasida bo`lgani kabi, viloyat shaharlari va qishloq joylaridagi tug`ilish darajalari o`rtasidagi farq uncha katta emas. Masalan, 2001 yil 1 yanvar` ma`lumotlariga ko`ra, viloyat shaharlarida har 1000 kishi hisobiga tug`ilganlar 19,9 kishini, qishloq joylarida esa 25,3 kishini tashkil etdi (mamlakat bo`yicha mazkur ko`rsatkichlar muvofiq holda 17,7 va 23,5 kishiga teng bo`ldi). Bu holat quyidagi ikki sabab bilan bog`liq: birinchidan, viloyat shaharlari o`zining demografik vaziyatiga ko`ra tuman markazlari yoki ba`zi qishloq aholi manzilgohlaridan keskin farq qilmaydi; ikkinchidan, yuzaga kelgan ekologik vaziyat va o`tish davrining vaqtinchalik ob`ektiv qiyinchiliklari qishloq aholisi demografik xulq-atvorining muayyan darajada o`zgarishiga olib kelgan.

Viloyatning bir qator tumanlarida tug`ilish darajasining nisbatan pastligi (masalan, Urganch, Yangiariq, Shovot) bu erdag'i aholining jins-yosh tarkibi bilan bog`liqdir. Ko`p qishloqlardan asosan yoshlarning (masalan, Urganch

tumanidagi G`aybu, Chakkasholikor, Anjirchi, Do`rmon qishloqlaridan, Yangiariq tumanidagi Ostona, Shovot tumanining Urganch shahriga yaqin qishloqlaridan) tuman markazlari va Urganch shahriga ko`chib ketayotganliklari ham bunda muayyan rol` o`ynaydi.

Viloyatda 3 ta shahardan tashqari 58 ta (aval 7 ta edi) shaharcha, 10 ta qishloq tumani mavjud bo`lib, ulardagi aholi soni 1979-2016 yillar mobaynida 2,3 martaga ko`paydi. Xuddi ana shu davr ichida viloyat shahar aholisi 3,8 va qishloq aholisi esa deyarli ikki barobarga ko`paydi (2-jadval).

Mustaqillikdan keyingi davrda ham viloyat shahar aholisining o`sish sur`atlariga nisbatan qishloq joylari aholisining o`sish ko`rsatkichlari birmuncha yuqoriligicha saqlanmoqda. Xorazm viloyatining Bog`ot, Xiva, Yangiariq, Shovot va Urganch tumanlarida aholi yuqori sur`atlarda o`smaqda. Gurlan, Qo`shko`pir tumanlari uchun esa aholi soni o`sishining o`rtacha holatlari xosdir. Xonqa, Hazorasp va Yangibozor tumanlarining qishloq aholisi nisbatan past darajada ko`paymoqda.

1981 yilda Xorazm viloyatiga Buxoro viloyati hududidan 150 ming gektarga yaqin o`zlashtiriladigan er ajratib berildi. Bu hudud Hazorasp tumaniga qarashli bo`lgan Tuproqqa`a aholi manzilgohi bo`lib, Pitnak shahri tasarrufidadir. Hududga viloyatning bir qancha tumanlaridan aholining muayyan qismi o`sha yillarda rejali migratsiya asosida ko`chirildi. Pitnak shahri aholisi sonining 1990 yildan keyin keskin ko`payganligi ana shu jarayon orqali izohlanadi.

Viloyat tumanlari va shaharlari o`rtasidagi masofa qisqa bo`lganligidan (bundan Gurlan va Hazorasp tumanlari birmuncha mustasno), ko`pchiligining ijtimoiy ishlab chiqarish va transport infratuzilmalari deyarli bir-biridan farq qilmaydi.

Demak, viloyat tumanlari qishloq aholisining tadrijiy o`zgarishidagi farqlar birinchi navbatda, aholining yosh va jins tarkibi, ayollarning ma`lumotlilik darjasи, ularning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki, mahalliy

Xorazm viloyati shahar va qishloq aholisi dinamikasi (ming kishi)

	1979 y	1985 y	1995 y	1999 y	2000 y	2016 y	2016 yilda 1979 yilga nisbatan % hisobida	O`rtacha yillik ko`payish, %da
Viloyat bo`yicha jami	746,9	891,4	1198,4	1301,2	1326,4	1747,0	2,4 barobar	2,7
Qishloq aholisi	596,8	629,4	899,8	987,2	1009,3	1181,5	197,8	2,5
Shahar aholisi	150,1	262,0	298,6	314,0	317,1	565,5	3,8 borabar	3,5
Shu jumladan Urganch sh.	100,0	116,3	136,9	139,1	139,2	138,6	138,6	1,5
Bog`ot	56,3	68,9	97,6	108,0	110,5	152,8	200,5	3,2
Gurlan	90,2	72,0	93,9	103,6	84,0	138,9	95,2	-0,2
Qo`shko`pir	63,2	77,0	107,2	115,9	102,2	160,1	164,8	2,3
Urganch	74,0	80,5	115,5	126,5	123,9	182,5	179,0	2,7
Hazorasp	94,0	115,3	157,3	172,9	176,7	231,6	144,4	1,7
Xonqa	69,2	83,2	114,3	124,9	95,8	173,5	141,4	1,6
Xiva	90,0	112,1	145,9	159,3	162,7	221,6	196,1	3,1
Shovot	65,6	57,7	106,1	115,9	103,2	157,7	182,3	2,7
Yangiariq	43,2	52,6	70,3	76,5	77,9	108,3	183,5	2,8
Yangibozor	-	55,6	53,4	58,6	53,9	81,4	-	-

Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tuzildi.

urf-odatlar, aholining o`rtacha nikohga kirish yoshi, milliy tarkibi hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog`liqdir.

Xorazm viloyati aholisi dinamikasini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- viloyat aholisi, ayniqsa qishloq aholisi yuqori sur`atlar bilan ko`paymoqda;
- viloyat shahar aholisining soni barqaror darajadagi tabiiy ko`payish hamda musbat migratsiya sal`dosi hisobiga o`smaqdida;
- viloyat qishloq aholisi soni asosan yuqori darajadagi tabiiy ko`payish hisobiga ortib bormoqda;
- qishloq aholisi sonida migratsiya jarayoni natijasida sezilarli o`zgarishlar kuzatilayotgan yo`q.

Xorazm viloyati O`zbekiston viloyatlari ichida aholisi soni bo`yicha to`qqizinchi (Qoraqalpog`iston Respublikasini hisobga olmaganda), maydonining hissasi bo`yicha esa 10-o`rinda turadi. Aholisining zichligi bo`yicha u respublikada Farg`ona vodiysi viloyatlari va Toshkent viloyatidan keyingi o`rinda turadi. Aholining o`rtacha zichligi 1 kv.km.ga 268,8 kishini tashkil etadi (2016 yil). Viloyat qadimdan sug`oriladigan dehqonchilik maskanlaridan biri bo`lib kelganligidan nafaqat O`zbekistondagi, balki dunyodagi qadimdan aholisi zich joylashgan hududlardan biri hisoblanadi.

Aholining aksariyat qismi Amudaryo sohiliga yaqin hududlarda, undan suv oluvchi kanallar bo`ylab, sug`oriladigan erlarning atrofida, ya`ni Xorazm vohasining asosiy qismida joylashgan. Undan tashqari temir yo`llar va avtomobil` yo`llari yo`nalishlaridagi hududlarda ham aholi nisbatan zich joylashgan. Viloyatning hayot kechirish sharoitlari noqulay bo`lgan (vohaning qum bilan qoplangan joylari, to`qayzorlar, sho`rxoklar, Tuproqqa`a aholi manzilgohi) hududlarida aholi nisbatan siyrak joylashgan, ba`zi joylarida esa umuman yashamaydi.

Aholi hududiy joylashuvining ana shu xususiyatlarini hisobga olib, viloyat tumanlari aholisi zichligiga ko`ra quyidagicha guruhlashтирildи.

Xorazm viloyatidagi Hazorasp, Urganch hamda Bog`ot tumanlari aholi eng zich joylashgan hududlar hisoblanadi. Ayni vaqtida Hazorasp tumaniga qarashli bo`lgan va hozirga qadar o`zlashtirilayotgan Tuproqqa'l'a manzilgohida aholi juda siyrakdir.

Amudaryo va irrigatsiya kanallaridan uzoqlashgan sari aholi soni va zichligi nisbatan kamayib boradi.

Xorazm viloyati miqyosida aholining soni va joylanishidagi ana shu tafovutlarga asoslangan holda uni to`rtta, ya`ni Shimoli-G`arbiy, Markaziy, Janubiy hamda Janubi-Sharqiy rayonlarga ajratish mumkin (3-jadval).

Viloyatda o`zining demografik salohiyatiga ko`ra Markaziy rayon etakchi o`rinni egallaydi. Tarkibiga Urganch, Xonqa va Qo`shko`pir tumanlari kiruvchi ushbu rayon aholisi 654,7 ming kishini tashkil etadi (2016 yil).

Bu viloyat jami aholisining 37,5 foizi yoki 1/3 qismidan ortiqrog`i demakdir. Ushbu rayonda viloyat markazi Urganch shahri aholisi qo`shilmaganda, jami aholining 29,5 foizi, jami qishloq joylar aholisining esa 43,6 foizi to`plangan (rayon aholisida Urganch shahri aholisining salmog`i 21,2 foizga teng).

Aholisining soni jihatidan Janubiy rayon viloyatda ikkinchi o`rinni egallaydi. Bu rayon tarkibiga Xiva, Yangiariq, Bog`ot tumanlari kiradi. Rayonda 482,7 mingdan ortiq aholi yashagini holda, bu viloyat jami aholisining 27,6 foizini tashkil etadi.

Demografik salohiyati bo`yicha viloyatda keyingi o`rinlarni Shimoli-G`arbiy va Janubi-Sharqiy rayonlar egallaydi. Mazkur rayonlar aholisining joylanish xususiyatlari, milliy tarkibining nisbatan xilma-xilligi jihatidan bir oz bir-biriga o`xshaydi. Bu rayonlarda aholi manzilgohlarining asosiy qismi avtomobil` yo`llari va Amudaryo qirg`oqlari bo`ylab joylashgan (bu xususiyat qisman Markaziy rayonga ham tegishli). Shimoli-G`arbiy rayonda jami aholining 21,6 foizi, Janubi-Sharqiy rayonda esa 13,3 foizi yashaydi.

Xorazm viloyati aholisining hududiy joylashuvidanagi farqlar*

Rayonlar	May-doni, ming kv.km.	1982 yil			1992 yil			2016 yil		
		Aholi soni, ming kishi	Aholining o`rtacha zichligi, km ² ga/kishi	Jami aholiga nisbatan ulushi, %	Aholi soni, ming kishi	Aholining o`rtacha zichligi, km ² ga/kishi	Jami aholiga nisbatan ulushi, %	Aholi soni, ming kishi	Aholining o`rtacha zichligi, km ² ga/kishi	Jami aholiga nisbatan ulushi, %
I. Shimoli-G`arbiy (Shovot, Yangibozor, Gurlan tumanlari)	1,24	179,1	144,4	22,0	231,5	186,7	21,0	378,0	233,2	21,6
II. Markaziy (Urganch, Xonqa va Qo`shko`pir tumanlari)	1,45	330,7	228,0	40,7	439,0	302,7	39,9	654,7	360,5	37,5
III. Janubiy (Xiva, Yanigariq va Bog`ot tumanlari)	1,31	210,8	160,9	25,9	285,8	218,2	26,0	482,7	273,3	27,6
IV. Janubi-Sharqiy (Hazorasp tumani)	2,10	92,4	44,0	11,4	144,0	68,6	13,1	231,6	85,7	13,3

* Xorazm viloyati satatistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Shunday qilib, Xorazm viloyati aholisining 65,1 foizi yoki deyarli 2/3 qismi Urganch-Xiva yo`nalishi bo`ylab cho`zilgan Markaziy va Janubiy rayonlar hududida to`plangan. Viloyat maydonining yarmidan ortiqroq qismini tashkil etuvchi Shimoli-G`arbiy hamda Janubi-Sharqiy rayonlarda esa jami aholining 34,9 foizi joylashgan.

2001 yil 1 yanvar` holati bo`yicha viloyatda 3 ta shahar (Urganch, Xiva, Pitnak), 58 ta shaharcha, 10 ta tuman, 100 ta fuqarolar yig`ini kengashlari va 612 ta qishloq bor. Mavjud o`nta tumandan 6 tasining har biri (Urganch, Hazorasp, Xiva, Bog`ot, Shovot, Qo`shko`pir tumanlari)da 100 mingdan ortiq aholi yashaydi.

Yuqorida ta`kidlanganidek, Xorazm viloyati O`zbekistonda o`zining urbanizatsiya darajasi pastligi bilan ajralib turadi. Buni viloyat shaharlari va qishloqlari o`rtasidagi o`rtacha masofa ham tasdiqlaydi. Viloyatdagi har bir shahar yoki shahar tipidagi aholi manzilgohi o`rtasidagi masofa o`rtacha 25,1 km ni tashkil etadi. Mazkur ko`rsatkich Toshkent, Andijon va Xorazmga o`xshash vodiy va vohalarda joylashgan viloyatlarda ancha past miqdor bilan ifodalanadi (Andijon viloyatida bo` ko`rsatkich 16,2 km ni, Toshkent viloyatida esa 21,4 km ni tashkil etadi).¹²

Viloyat o`zining qishloqlari o`rtasidagi masofaning qisqaligi bo`yicha ham O`zbekistonda oldingi o`rinlardan birini egallaydi. Mamlakatda har bir qishloq o`rtasidagi masofa o`rtacha 6,4 km ga teng bo`lsa, ushbu ko`rsatkich viloyatda 3,1 km ni tashkil etadi. Bu holat bir xil sharoitda Xorazm viloyatida qishloq aholisining nisbatan zich va kompakt joylashganligini ko`rsatadi.

Xorazm viloyati aholisining, shu jumladan shaxar va qishloq aholisining joylashuvi dastavval, uning tabiiy harakati, tabiiy o`sishi bilan bog`langan. Shu bilan birga qishloq va ayniqsa, shahar aholisining ko`payishida (kamayishida) migratsiyaning ham o`ziga xos o`rni mavjud.

¹ Шаҳарлар ўртасидаги масофа қўйидаги формула билан аниқланади. $R = \sqrt{s/n}$, бунда R-ўртача масофа (км), S-майдон (км^2), n-аҳоли пунктлари сони. Қаранг: С.А.Ковалев, Н.Я.Ковальская. География населения СССР, МГУ, 1980.- с.154.

II.2. Viloyat aholisining tabiiy va migratsion harakati

U yoki bu mintaqada aholi sonining o'sishi yoki kamayishiga tabiiy ko`payish va migratsiya jarayonlari, shuningdek, ma`muriy-hududiy o`zgarishlar katta ta`sir ko`rsatadi. Ammo, ko`pincha aholi sonining o'sishida tabiiy ko`payish muhim omil hisoblanadi. U barcha o'tgan davrlarda Xorazm aholisining o'sishida ham asosiy manba bo`lib kelgan. Lekin keyingi yillarda mintaqada yuz berayotgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarga bog`liq aholining tabiiy ko`payish darajasi keskin kamaygan bo`lsada, u migratsiya salbiy qoldig`i o`rmini qoplamoqda.

Aholining takror barpo etilishi murakkab va ko`p qirrali jarayon bo`lib, u bir-biri bilan bog`langan bir qator omillar mahsuli hisoblanadi. Ushbu jarayonlar ichida tug`ilish va o`lim ko`rsatkichlari aholining soni, tarkibi va joylanishiga bevosita, boshqalari bilvosita ta`sir ko`rsatadi.

Tug`ilish va o`lim muhim demografik jarayonlar hisoblanib, aholining tabiiy harakatini belgilab beradi. Bu o`rinda, bir xil sharoitda, ayniqsa tug`ilish katta ahamiyatga ega bo`lishini ta`kidlash zarur. “Tug`ilish murakkab biologik jarayon, u juda ko`p omillar ta`sirida shakllanadi va o`zgaradi. Bu omillar ijtimoiy-iqtisodiy, geografik, demografik, biologik va boshqa guruhlarga ajratiladi”¹.

Aholining urf-odatlari va an`analari ham shular jumlasiga kiradi.

Xorazm O`zbekistonning demografik, shu bilan birga ekologik rivojlanishi o`ziga xos bo`lgan viloyatlaridan hisoblanadi. Viloyatda tug`ilish doimo yuqori darajaga, umumiyl o`lim ko`rsatkichi esa nisbatan past darajaga ega bo`lgan. Faqat 60-yillardan keyingi davrda Orolbo`yi mintaqasida yuz berayotgan ekologik tanglik viloyat demografik rivojlanishida ham noxush o`zgarishlar bo`lishiga olib keldi. Natijada bu erda ayollar va bolalar, ayniqsa go`daklar o`limi nisbatan ko`paydi, aholining o`rtacha umr ko`rish davri bir oz qisardi,

¹ Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов. М., 2001. – с.45.

tug`ilish darajasi so`nggi o`n yilliklardan boshlab sezilarli darajada o`zgara boshladi.

Viloyatda 1979-2016 yillar mobaynidagi aholi tabiiy harakati ko`rsatkichlarini tahlil etish shuni ko`rsatadiki, viloyat miqyosida tug`ilganlarning soni 1990 yilgacha barqaror ravishda ortib borgan bo`lsa, mustaqillikdan keyingi davrlardan boshlab esa tug`ilish darajasi pasayib bormoqda (4-jadval). Yana shuni ta`kidlash joizki, viloyatning shaharlari va qishloq joylari tug`ilish darajalari o`rtasidagi farq uncha katta miqdorni tashkil qilmaydi. Mazkur ko`rsatkich 2015 yilda shaharlarda har 1000 aholiga nisbatan 19,9 kishiga, qishloq joylarda esa 25,3 kishiga teng bo`ldi. Demak, shaharlarda aholi sonining nisbatan tezroq sur`atlar bilan ko`payishi birmuncha yuqori darajadagi tug`ilish bilan asoslanadi; qishloqlarda ham yuqori darajadagi tug`ilish va ayniqsa musbat migratsiya sal`dosi aholining tez sur`atlarda o`sishiga sabab bo`lmoqda.


1979-2016 yillardagi viloyat aholisi tabiiy harakati ko`rsatkichlariga binoan, jami o`lgan aholining 70,0-75,0 foizi uning qishloq joylari zimmasiga to`g`ri keladi.

4-jadval

Xorazm viloyati aholisining tabiiy harakati ko`rsatkichlari (ming kishi)*

Yillar	Tug`ilganlar soni (ming kishi)	O`lganlar soni, (ming kishi)	Tabiiy o`sish (ming kishi)
1979	31,2	6,4	24,1
1980	32,1	6,5	25,6
1985	38,4	7,3	31,1
1989	34,5	5,9	28,6
1990	37,2	6,1	31,1
1995	35,4	7,3	28,1
2000	32,1	6,9	24,9
2005	21,9	4,7	17,2
2010	21,4	4,3	14,0
2015	22,9	4,6	18,3

*Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tuzildi.



**1-chizma. Xorazm viloyati aholisining tabiiy harakati
(muallif tomonidan tuzilgan)**

Chunonchi, 2000 yilda Xorazm viloyatida o`lgan aholining mutlaq soni 6,9 ming kishini tashkil etgan bo`lsa, shundan 4,9 ming kishi (71,0%) uning qishloq joylariga to`g`ri kelgan. Shuni ta`kidlash kerakki, Xorazm viloyatidagi demografik rivojlanish birinchi navbatda qishloq aholisining demografik xususiyatlari bilan belgilanadi.

O`zbekistonda tug`ilganlarning mutlaq soni ko`paygani holda tug`ilishning umumiyligi koeffitsienti pasaymoqda. Aynan ana shu holat viloyatdagi demografik jarayonlarga ham xosdir. Tug`ilish koeffitsienti qatorlaridagi barqaror pasayish 1987 yildan keyingi davrdan boshlab kuzatiladi.

Xorazm viloyati shahar va qishloqlari o`rtasida aholini tug`ilish darajalarida keskin farqning kuzatilmasligi uning shaharlari va qishloqlari o`rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning uncha katta emasligi, ularning o`zaro yaqin joylashganligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, shaharliklarning aksariyatini qishloq joylaridan ko`chib kelgan aholi tashkil qilgani holda, ularning muayyan qismi qishloq xo`jaligi yoki unga aloqador tarmoqlarda ham band ekanligi yuqoridagi holatning shakllanishiga olib kelgan. Viloyat shaharlarining tumanlarga tutash joylashgan aholisining muayyan qismi haqida ham shunday fikr bildirish mumkin.

Viloyat miqyosida tug`ilish darajasi 22,9 promillega teng bo`lgani holda, mazkur ko`rsatkich Gurlan, Xonqa, Qo`shko`pir, Yangibozor shaharchalari, Xiva shahrida nisbatan yuqori darajalarga ega (5-jadval). Yuqorida nomlari keltirilgan shaharchalarda tug`ilishning nisbatan yuqori darajada ekanligi u erda mavjud aholining milliy, yosh va jins hamda ijtimoiy tarkibi bilan, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi bandlik darajasi bilan bog`liqdir.

Urganch va Pitnak shaharlarida, Cholish shaharchasida tug`ilish darajasi nisbatan past ko`rsatkichlar bilan ifodalanadi. Ma`lumotlarning ko`rsatishicha, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi nisbatan yuqoriroq bo`lgan shahar va shahar tipidagi aholi manzilgohlarida tug`ilish darajasi pastroq ko`rsatkichlarga egadir.

Umuman, viloyat miqyosida shaharlar uchun tabiiy ko`payish koeffitsientining bir oz pasayishi xos bo`lmoqda, biroq shaharlar aholisi tabiiy ko`payish koeffitsienti mamlakatdagi ushbu ko`rsatkichlardan **5-7** tartibga yuqoridir.

5-jadval

Xorazm viloyati tumalarida aholining tabiiy harakati koeffitsientlari (2015 yil, har 1000 aholiga nisbatan)*


	Tug`ilganlar soni	O`lganlar soni	Tabiiy ko`payish	Har 1000 tug`ilgan boladan bir yoshga etmasdan o`lganlar soni
Viloyat bo`yicha	22,9	5,2	18,8	24,6
Shu jumladan shahar va shaharchalarda	19,9	6,3	13,6	46,0
Urganch	18,2	7,2	11,0	78,3
Xiva	21,0	5,8	15,2	30,5
Pitnak	16,8	3,7	13,1	10,8
Gurlan	23,5	6,6	16,9	40,8
Qo`shko`pir	22,2	7,5	14,7	14,2
Cholish	18,2	5,0	13,2	8,5
Hazorasp	20,2	7,2	13,0	38,5
Xonqa	23,1	4,8	18,3	18,7
Shovot	20,7	4,9	15,8	5,9
Yangibozor	21,2	5,0	16,2	23,1

*Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tuzildi.

Gurlan, Xonqa, Qo`shko`pir, Yangibozor va Shovot shaharchalarida yashovchi aholining 98 foizdan ortiqrog`ini mahalliy millat vakillari tashkil etadi. Bu aholi punktlaridagi aholining yosh va jins tarkibi ham nisbatan optimaldir. Demografik omillar, ya`ni aholining yosh va jins tarkibi uning tabiiy o`sishiga shubhasiz, ta`sir ko`rsatadi. Lekin tug`ilishdagi mavjud hududiy farqlar faqatgina demografik omillar bilan belgilanmaydi. Bu farqlar aholining moddiy va madaniy turmush darajasi, ma`lumotliligi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligi hamda milliy urf-odatlar bilan ham bog`liqdir (1-rasm. Xorazm viloyati aholisi xaritasi).

Viloyatning Urganch va Xiva shaharlarida, Qo`shko`pir, Hazorasp, Gurlan shaharchalarida aholi o`lim koeffitsientining nisbatan yuqori ekanligi kuzatiladi.


Ma`muriy birliklar orasida tug`ilishning yuqori darajasi Hazorasp, Bog`ot, Gurlan, Xiva va Qo`shko`pir, Shovot tumanlari uchun xosdir (grafikga qarang).



2-chizma. Xorazm viloyati tumalarida aholi tabiiy harakati koeffitsienti diagrammasi

Mazkur tumanlarda aholi tabiiy ko`payishining mutlaq ko`rsatkichlari ancha yuqori miqdorlar bilan aniqlanadi. So`nggi yillarda bu ko`rsatkich deyarli 26-28 ming kishini tashkil etmoqda. Tug`ilishning nisbatan past ko`rsatkichlari Urganch, Yangiariq, Xonqa va Yangibozor tumanlarida kuzatiladi.

XORAZM VILOYATI AHOLO KARTASI



1-rasm. Xorazm viloyati aholi xaritasi. Muallif tomonidan 2017-yilda tuzilgan

Tumanlar miqyosida tug`ilish darajalari o`rtasidagi hududiy farqlar ularning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy turmush darajalari o`rtasidagi tafovutlar bilan bog`liqdir. Ammo, yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, mahalliy aholining so`nggi yillarda viloyatdagi ekologik vaziyatning murakkablashuvi, o`tish davrining vaqtinchalik iqtisodiy qiyinchiliklari natijasida bir oz o`zgargan demografik xulq-atvorining ham bunda muayyan o`rni bor. Bu holat tuman markazlari uchun ham xosdir.

Viloyatning qishloq joylarida yashovchi aholining aksariyat qismi mahalliy millat vakillaridan iborat bo`lib, ularning yosh va jins tarkibi optimal bo`lgan tumanlarda tug`ilish darajasi nisbatan yuqori ko`rsatkichlarga ega. Bunda tug`ilish darajasi pastroq bo`lgan shaharchalarning demografik jarayonlarga bo`lgan ta`siri kamroqdir.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida tuman markazlari va shaharchalarning demografik jarayonlarga bo`lgan ta`siri uncha sezilarli emas. Xorazm viloyatiga, uning tumanlariga xos bo`lgan tug`ilish koeffitsientlari respublikada mavjud bo`lgan o`rtacha ko`rsatkichlardan 1-2 tartibga yuqori. Bunday vaziyatning kelajakda ham saqlanib qolish ehtimoli katta.

Viloyat qishloq joylari aholi tug`ilish darajasining kattaligi bo`yicha respublikada Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlari qishloq joylaridan keyingi o`rinni egallaydi.

Viloyatda o`lim koeffitsientining eng yuqori darajasi Yangibozor (5,0 promille) tumanida va Urganch shahrida (7,0 promille) kuzatiladi. Ammo mamlakat miqyosida o`lim koeffitsienti o`rtacha darajaga ega ekanini ta`kidlash lozim. Keyingi yillarda Xorazm viloyatida tug`ilish darajasining nisbatan kamayishi va aholi yosh-jins tarkibidagi siljishlarni hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, viloyatda o`lim umumiy koeffitsienti asta-sekinlik bilan ko`payib borish tendentsiyasiga moyil ekanligi kuzatiladi.

Bolalar o`limi Xorazm viloyatida mamlakatga xos ko`rsatkichlardan 4-5 tartibga yuqoridir. Umuman, bir yoshgacha bo`lgan bolalar o`limi Quyi

Amudaryo regionida mamlakatning boshqa qismlariga qaraganda ko`proqdir. Bu ko`rsatkich Qoraqalpog`iston Respublikasida 20,5 ga, Xorazm viloyatida 24,6 ga teng (2015 yil). Mamlakat bo`yicha ushbu ko`rsatkich 18,9 ga tengdir. Viloyatning Urganch va Xiva shaharlarida, Gurlan, Hazorasp va Yangibozor shaharchalarida, Urganch, Yangibozor, Yangiariq va Xonqa tumanlarida bir yoshgacha bo`lgan bolalar o`limi nisbatan yuqoriyoq. Bunda ayollar aksariyat qismining kamqonlik kasaliga chalinganligining roli bor.

O`zbekistonning suveren davlat sifatida rivojiana borishi uning demografik ko`rsatkichlariga ham ozmi-ko`pmi ta`sir ko`rsatmoqda. Respublikada aholi migratsiyasi aloqalarining yo`nalishlari va natijalari o`zgarmoqda. Bu mamlakat miqyosida aholining qayta taqsimlanishiga muayyan darajada sabab bo`lmoqda. Ammo viloyatlar, birinchi navbatda , markazdan uzoqda joylashgan hududlar aholisining shakllanishi asosan tabiiy harakat hisobiga amalga oshmoqda. Xorazm viloyati ham bundan mustasno emas. Viloyat aholisi tabiiy ko`payishining mutlaq ko`rsatkichi yiliga o`rtacha 22-27 ming kishini tashkil etmoqda. Hisob-kitoblarga asoslansak, viloyat aholisi tabiiy ko`payishi natijasida 30-35 yil mobaynida 1 mln. kishiga ortgan. Uning $\frac{3}{4}$ qismi qishloq joylarga, qolgan qismi esa shaharlarga to`g`ri keladi

Aholi soni va uning tarkibiga nikohga kirish hamda ajralish jarayonlari ham ta`sir ko`rsatadi. Xorazm viloyati aholining yuqori darajadagi nikohlanish koeffitsientiga ega. Bu o`rinda viloyat shaharlari bilan qishloqlari o`rtasida deyarli farq yo`qligini ta`kidlash lozim. Viloyat aholisi ichida ajralish jarayonlari mamlakat miqyosida past ko`rsatkichlar bilan aniqlanadi. Bu, bir xil sharoitda, aholining milliy tarkibi, urf-odatlari, an`analari bilan bog`liqdir.

Demografik vaziyat-ayrim hududlarga xos bo`lgan demografik jarayonlarning ko`zgusidir. Uning shakllanishiga dastavval, tabiiy harakat, ayrim hududlarda esa aholi migratsiyasi ham katta ta`sir ko`rsatadi. Migratsion jarayonlar zaif bo`lgan regionlarda demografik vaziyat asosan tabiiy harakat orqali ifodalanadi. Xorazm O`zbekistonning demografik vaziyati o`ziga xos yo`nalishga ega bo`lgan viloyatlaridan biridir. Bu erda tug`ilish darjasini nisbatan

yuqori, migratsiya jarayonlari esa kichik hajmga ega. Shu jihatil bilan u Janubiy O`zbekiston viloyatlariga o`xshaydi.

Viloyatda migratsiya jarayonlarining faolligi juda yuqori bo`lmasada, so`nggi yillarda u mazkur hudud demografik salohiyatining oz bo`lsada o`zgarishiga sabab bo`lmoqda. Xorazm viloyati O`zbekistonda aholi migratsiyasi intensivligi bo`yicha oxirgi o`rinlarda turadi. Masalan, 1980 yilda viloyatga tashqi migratsiya aloqalari natijasida 10,1 ming kishi ko`chib kelgan bo`lsa, mazkur ko`rsatkich 1985 yilda 14,6 ming kishiga, 1992 yil 13,9 ming, 1996 yil 5,3 ming, 2000 yilda esa 3,9 ming kishiga teng bo`ldi. Agar viloyatga 1996 yilda 5,3 ming kishi kishi ko`chib kelgan bo`lsa, viloyatdan 5,9 ming kishi ko`chib ketgan; 1997 yilda 6,1 ming kishi ko`chib kelgan bo`lsa, undan 6,9 ming kishi ko`chib ketgan. 2000 yilda esa bu ko`rsatkichlar mos ravishda 3,9 ming va 4,2 ming kishiga teng bo`ldi. 2015 yilda esa viloyatga 6,2 ming kishi ko`chib kelsa, 7,1 ming kishi ko`chib ketgan va migratsiya sal`dosi 0,9 mingkishini tashkil etgan.¹⁴

Migratsiya samaradorligi viloyatda uncha katta bo`lмаган ко`rsatkichlar bilan aniqlanadi. Uning muhim mezoni bo`лган migratsiya sal`dosi 1997-2000 yillar mobaynida 15,7 ming kishiga barobar bo`ldi. Bu respublika viloyatlari ichidagi eng past ko`rsatkichlardan biridir (6-jadval).

¹⁴ Вилоят статистика бошқармаси маълумотларига асосланилди.

6-jadval

Xorazm viloyatini aholisining mexanik xarakati

Yillar	kelganlar	ketganlar	Migratsiya saldosi	Yillar	kelganlar	ketganlar	Migratsiya saldosi
1991	16695	11810	4885	2007	5768	8732	-2964
1995	5849	6545	-695	2008	5989	7526	-1537
2000	7182	8565	-1383	2009	6250	7852	-1602
2001	6366	8484	-2118	2010	7239	8315	-1076
2002	5622	8300	-2678	2011	7737	7781	-44
2003	5344	8217	-2873	2012	7192	9511	-2319
2004	6323	9296	-2973	2013	7333	7655	-322
2005	6433	9981	-3548	2014	6202	7147	-945
2006	5743	8134	-2391	2015	6322	7130	-808

Jadval O'zbekiston Respublikasi statistika ko'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Viloyatga ko`chib kelayotganlarning ko`pchilik qismi tumanlarga to`g`ri keladi. Bu vaziyat bo`yicha ham Xorazm O`zbekistonning boshqa viloyatlaridan ajralib turadi. Bunda, albatta, viloyatda urbanizatsiya darajasining pastligi muhim ahamiyatga ega bo`lmoqda deyish mumkin. Ma`lumotlarning ko`rsatishicha, 2000 yilda jami ko`chib kelganlarning 55,8 foizi qishloqlarga, qolgan qismi shahar va shaharchalarga to`g`ri keladi.

1979-2000 yillar ichida viloyat bo`yicha aniqlangan migratsiya sal`dosi (qoldig`i) qishloqlarda -20,3 ming kishini, shaharlarda 36,0 ming kishini tashkil etdi.

Quyi Amudaryo regionida yuzaga kelgan keskin ekologik vaziyat viloyatdagи demografik va geografik, migratsion jarayonlarga ta`sir ko`rsatmoqda. Bunda tarixan tarkib topgan an`anaviy migratsiya yo`nalishlarining ahamiyati kamayib, aholi ko`chishining asosiy sabablari murakkab ekologik vaziyatda kasalga chalinmaslik, bolalar hayotini muhofaza qilish va boshqalardan iboratdir. Tadqiqotlarimizning ko`rsatishicha, Xorazm viloyatidan hamda qo`shni Qoraqalpog`iston Respublikasidan asosan qozoqlarning Qozog`iston Respublikasiga, rusiyzabon xalqlarning esa Rossiyaga ko`chib ketayotganliklari kuzatilmoqda.

Tashqi migratsiya geografiyasida Qoraqalpog`istondan, ayniqsa uning ekologik vaziyat juda yomonlashgan Mo`ynoq, Taxtako`pir, Bo`zatov va Qorao`zak tumanlaridan muayyan aholining viloyat hududiga ko`chib kela boshlayotganligini ta`kidlash lozim. Ko`chib kelayotganlarning aksariyati o`zbeklar, qoraqalpoqlar va qisman qozoqlardan iborat.

Xorazm viloyati aholisining yuqorida ko`rib chiqilgan joylanish xususiyatlari, tadrijiy o`zgarishi va mexanik harakati mehnat resurslarining shakllanishiga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Quyidagi 7-jadvaldan viloyat aholisining so`ngi yillardagi aholi ta`rifini ko`rish mumkin.

7-jadval

Xorazm viloyati aholisi to'g'risida umumiylumot*

	2015 y. (ming kishi)	Maydoni ming km kv	Aholi zichligi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	erkak	ayol	Tug'ilish	O'lim	Tabiiy o'sish
Urganch sh.	138,0	0,029	4758,6	138,0		69706	68934	2 957	915	2042
Bog'ot	149,8	0,44	337,9	26,3	123,5	75236	77577	3 505	657	2848
Gurlan	136,4	0,447	305,1	58,4	78,0	70200	68755	3 001	638	2363
Qo'shko'pir	156,9	0,54	290,6	40,8	116,1	80720	79346	3 993	663	3330
Urganch t.	178,7	0,44	406,1	24,2	154,5	90573	91933	3 872	783	3089
Xazarasp	227,4	2,06	110,4	50,7	176,7	114839	116706	5 432	985	4447
Xonqa	170,4	0,432	394,4	58,6	111,8	87549	85977	4 080	765	3315
Xiva	217,3	0,46	472,4	81,0	136,3	109537	111986	5 286	970	4316
Shovot	154,5	0,46	335,9	40,6	113,9	78703	78964	4 005	673	3332
Yangiariq	106,3	0,4	265,8	24,3	81,0	54878	53390	2 369	446	1923
Yangibozor	79,9	0,34	235,0	15,1	64,8	40466	40907	1 752	385	1367
Viloyat bo'yicha	1715,6	6,05	283,5	559	1156,6	872407	874475	40252	7 880	32372

*Jadval Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

II.3.Viloyat aholisining demografik tarkibi

Aholini ijtimoiy-demografik jihatdan o`rganganda uning demografik tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Demografik tarkib, demografik tuzilish ko`p jihatdan aholining takror barpo bo`lish ko`satkichlarida, bolalar, mehnat resurslari, nafaqaxo`rlar sonini hisobga olishda, ular uchun zaruriy ijtimoiy mahsulotlar ishlab chikarish, ijzimoiy himoya masalalarini hal etish hamda mamlakat kelajak dasturlarini yaratishda dolzarb. hisoblanadi.

Demografik tarkibda yosh-jinsiy tuzilish kechagi demografik jarayonlar, tug`ilish va o`lim hodisalarining natijasi kelgusi aholi takror barpo bo`lishining asosiy manbaidir. Chunki, aholining yosh tarkibi jamiyatning demografik holati, ya`ni aholining nikohga kirishi va nikohning bekor etilishi (ajralish), tug`ilish, o`lim kabi jarayonlarda va ijtimoiy ahvolida (urishlar, migratsiya) shakllanadi hamda rivojlanadi. Shuningdek, mazkur tarkibdagi o`zaro mutanosiblik bu jarayonlar borishiga salmoqli ta`sir etgan holda, aholining ko`payishida muhim demografik zamin bo`lib xizmat qiladi.

Aholi takror barpo bo`lishi bilan yosh tarkib o`zaro chambarchas bog`liqdir. Bu bog`liqlik V.A.Borisov tomonidan aniq ko`rsatib berilgan. Unda aholi takror barpo bo`lishining uchta ko`rinishi: progressiv, statsionar va regressiv tiplari keltiriladi

Birinchi progressiv tip uchun tug`ilish va o`lim yuqori bo`ladi. Bunda aholi yosh tarkibida bolalar salmog`i ko`p, keksa yoshdagilar kam sonli bo`ladi. Tug`ilish va o`lim darajalari pasayadi, axoli o`sishi sekinlashadi va keyinchalik hatto to`xtaydi. Aholi yosh tarkibining ikkinchi statsionar tipi vujudga keladi, oqibatda, aholi harakati turg`un, o`zgarishsiz qoladi.

Regresiv tip uchun o`lim ma`lum bir sharoitda o`zining eng quyi nuqtasiga etadi, tug`ilish ko`satkichi pasayishda davom etadi, natijada depopulyatsiya jarayoni boshlanadi. Aholi yosh tarkibida qariyalar ko`payib, yoshlar kamayib ketadi, aholi qariy boshlaydi.

O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi respublika aholisini

yosh guruxlarga ajratishda, uning fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, yosh kontingenqlariga ajratadi. Bunda aholi yoshi, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa belgilariga ko`ra guruhlashтирilади, ya`ni 0-2 yoshgacha go`daklik va bolalik, 3-5 yoshgacha bog`cha davri, 6-7 yoshgacha maktabgacha va 8-15 maktab davri, 16 yoshdan yuqori mehnatga layoqatli yosh va h.k.

E.Nabiev va A.Qayumovlar aholi yoshini beshta guruhgaga bo`lib o`rganishni tavsiya etishadi. Bunda, aholi yosh tarkibi 0-14 yosh bolalar, 15-24 yosh o`smit yoshlar, 25-60 yosh mehnatga qobiliyatli aholi, 60-70 yosh nafaqa yoshidagilar, 70 yosh va undan kattalar tarzda ajratiladi¹⁵. Demak, mamlakat aholisining yosh-jinsiy tarkibini dastavval uning biologik tipi bo`yicha tadqiq etish alohida ahamiyatga ega, chunki har kanday demografik jarayonlar aholining u yoki bu yoshida albatta, ro`y beradi.

Aholining yosh tarkibini iqtisodiy va biologik tiplari bo`yicha guruxlash u yoki bu xududning nafaqat demografik ko`zgusi», balki mehnat resurslari bilan ta`minlanganlik darajasini, aholi takror barpo bo`lish xususiyatlarining sabablarini aniqlashda muhim o`rin tutadi.

Mustaqillik yillari demografik jarayonlarida ro`y berayotgan o`zgarishlar aholining yosh tarkibiga o`z ta`sirini ko`rsatganligi ba`zi yosh guruxlari miqdori kamayishi yoki ko`payishida yakqol ko`rinnokda. Masalan, viloyatda 1991-2016 yillarda 0-2 yoshgacha bo`lgan bolalarning jami aholidagi hissasi 1,4 barobarga qisqargan, 8-15 yoshgacha bo`lganlar esa 1,4 martaga ko`paydi. Umum aholining tarkibida 16 yoshdan to 60 yoshgacha bo`lgan aholi qatlami ulushi ushbu davrda 1,2-1,5 barobarga. oshdi. Bunga avvalo aholi o`rtasida farzandlar tug`ilishining anglangan tarzda rejalahtirilishi tufayli oilalarda bolalar tug`ilishi kamayib ketganligi sababdir. Chunki, aholi o`limining, xususan bolalar o`limining bu erda sezilarli ta`siri kuzatilmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma`lumotiga ko`ra, mustaqil davlatlar hamdo`stligiga kiruvchi ayrim mamlakatlar orasida bolalar salmog`i ko`pligi

¹⁵ ¹ Набиев Э., Каюмов А. Ўзбекистоннинг иктисодий салоҳшиги.-Т., «Академия», 2000. Б.42.


bo`yicha O`zbekiston Tojikiston Respublikasidan keyin ikkinchi o`rinda joylashgan. Jumladan, Tojikistonda 15 yoshgacha bo`lganlar jami aholining 38 foizini, 65 yoshdan kattalar esa atigi 4 foizni (2015 y.) tashkil etadi.

Viloyat aholisi tarkibida yoshlarning salmog`ining ko`p bo`lishi mehnat resurslari bilan ta`minlanishining yuqoriligidagi sabab bo`lmoqda (2-rasm).

Viloyat aholisida nikoh-oila munosabatlari va uning davomiyligi demografik jarayonlardan tug`ilishning ko`payishida asosiy sabablardandir. Bugungi kunda bu munosabatlar o`z mavqeini yo`qotmagan holda, tug`ilishning qisqarishi hamda o`limning, ayniqsa, bolalar o`limining kamayishi oilaning o`lchamiga mehnat resurslari nisbiy va mutlaq miqdorida aks eta boshladi. Bu esa mehnatga layoqatli yoshdagagi aholining nafaqat takror barpo bo`lishi, balki ijtimoiy harakati ularning ekstensiv tipdan intensiv tipga o`tishiga olib kelishi mumkin.

Viloyatda yuqorida qayd etganimizdek 1980-1990-yillardagi aholi qatlaming soni yuqoriligi nikohlar sonining ko`payishiga ham sabab bo`lmoqda. 2016-yili viloyatda 16192 nikoh ruyxatga olingan, ajralishlar soni esa 996 tani tashkil qildi. Har ming aholiga nisbatan 9,4 nikoh va 0,6 ajralishlar to`g`ri keldi. 2015 yilda ushbu ko`rsatkichka mos ravishda 10,0 va 0,6 dan to`g`ri keldi. Bundan nisbatan nikohlar soni kamayyotganligi ko`rinadi va bu keyingi yillarda nikoh tuzish yoshining kattalashishi bilan ham izohlanadi.

O`tish davrida demografik jarayonlarda ro`y berayotgan o`zgarishlar aholining yosh tarkibiga o`z ta`sirini ko`rsatganligi ba`zi yosh guruhlari miqdori kamayishi yoki ko`payishida yaqqol ko`rinxmokda. Respublikada 1991-2015 yillarda 0-2 yoshgacha bo`lgan bolalarning jami aholidagi hissasi 1,2 barobarga hisqargan, 8-15 yoshgacha bo`lganlar esa, 1,3 martaga ko`paydi. Umum aholining tarkibida 16 yoshdan to 60 yoshgacha bo`lgan aholi qatlami ulushi ushbu davrda 1,2-1,5 barobarga oshdi.



2-рasm. Xorazm viloyati mehnat resurslari xaritasi (muallif tomonidan tuzilgan)

Bunga avvalo aholi o`rtasida farzandlar tug`ilishining anglangan tarzda rejalashtirilishi tufayli oilalarda bolalar tug`ilishi kamayib ketganligi sababdir. Chunki, aholi o`limining, xususan bolalar o`limining bu erda sezilarli ta`siri kuzatilmaydi.

Xorazm viloyatida 0-15 yoshgacha bo`lgan aholining 48,7 foizi ayollar, 51,3 foizini erkaklar tashkil etgan holda, jami ayollardan 31,8 foizi, erkaklardan 33,5 foizi shu yoshga tegishlidir. Mazkur yoshdagi ayollarning erkaklarga nisbatan ulushi kamligi 16-59 yoshdagi aholida, xususan erkaklarda o`lim hodisasining ko`pligi evaziga keyingi yosh guruhlarida o`zaro tenglashib boradi, Mustaqillik yillarida 0-15 yoshgacha bo`lganlar 105,8 % o`sish qayd etildi, biroq ularning mamlakat aholisidagi ulushi ko`rيلayotgan davrda 42,9 % dan 32,7 % ga tushdi yoki 1,4 foizga qisqardi. Aynan demografik jarayonlardagi pasayishlar dastlabki o`zining natijasini shu yosh guruhidagilarning kamayishida ko`rsatmoqda. Bu zsa keyinchalik mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni va salmog`ida o`z ifodasini topadi.

Aholining yosh tarkibi o`ziga xos hududiy xususiyatlarni kasb etadi. Chunonchi, qaysi viloyatda tugilish jarayoni yuqori bo`lsa, o`sha viloyatda bolalar va o`smirlar miqdori ko`p. Masalan, 0-15 yoshgacha bo`lganlarning jami mamlakat aholisidagi ulushi Xorazm viloyatda umummamlakat ko`rsatkichidan (32,7%) baland. Viloyatda hozirgi kunda 967,8 ming kishi mehnat resursini tashkil etsa, shundan 712,1 ming kishi faol aholidir. Faol aholining 696 ming kishisi, ya`ni 97,7 foizi iqtisodiyotda band. Ishsizlar soni 599 kishini tashkil etmoqda (2016 y.).

Odatda, aholi yosh tarkibining o`zgarishida uchta omil muhim rol` o`ynaydi. Bulardan birinchisi, aholining qaysi yosh guruhidan qat`i nazar, ularning tug`ilgan vaqtidagi soni, ikkinchisi, o`lim hodisasi tufayli yosh guruhlariga mansub aholining kamayishi, uchinchisi, aholining mexanik harakati. Aynan, aholining yosh tarkibiga tug`ilish, o`lim va migratsiya kabi demografik jarayonlar bevosita o`z ta`sirini ko`rsatadi va shu ta`sir ostida makon va zamonda aholining yosh tarkibi shakllanadi. Xorazm viloyatida bolalar,

qariyalarning demografik yuki kamayayotganligini va o`z navbatida umumiy yuk koeffitsientining pasayganligini ko`rsatdi. Demografik jarayonlardagi o`zgarishlar tufayli 1991-2016 yillarda har 15-59 yoshdagi aholiga nisbatan to`g`ri keladigan bolalar yuki koeffitsienti 1,1 foizga, qariyalar yukining koeffitsienti 1,4 foizga qisqarishiga olib keldi. Tug`ilish darajasi o`lim ko`rsatkichi bilan teng yoki past, aholi tabiiy ko`payishi sust bo`lgan xududlarda qariyalar yuki yukori, aksincha tug`ilish ko`p, o`lim past aholi tabiiy ko`payishi samarali amalga oshayotgan davlatlarda bolalar yukining koeffitsienti katta bo`ladi. O'tish davrida o`ziga xos aholi yosh tarkibi vujudga keldi. Bu yosh tarkib bolalar soni va salmog`i kam, o`rta yoshli aholi qatlami ko`p, keksa va qariyalar juda kichik ulushni tashkil etilishi bilan xarakterli bo`ldi. Chunonchi, 1989 yilda viloyat aholisi yosh tarkibi to`liq progressiv ko`rinishda bo`lgan bo`lsa, 2016 yilga kelib, progressivdan statsionarga o`tish bosqichida turibdi. Hozirgi mavjud bolalar, o`smir yoshlarning mehnat yoshiga etishi, mehnat yoshidagi o`rta qatlam aholining keksalik davriga o`tishi kelajakda aholi yosh tarkibida qariyalar hissasining yanada ortishini ta`minlaydi, oqibatda aholi yosh tarkibi to`liq statsionarga undan regressiv holatga o`tadi. Binobarin, respublika aholisining bugungi yosh tarkibi quyidan qarishni boshidan o`tkazmokda. Yangi iqtisodiy munosabatlar davridagi demografik jarayonlarning natijasi, kelgusi aholi yosh tarkibida qariyalar ulushining ko`payib ketishiga zamin bo`ladi.

Aholi yosh tarkibida qariyalar ulushining ortishi bugundan e`tiboran mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida maxsus hududiy-sohaviy Davlat dasturlari ishlab chiqishni taqozo etadi. Holbuki, qariyalarning ko`payishi aholi takror barpo bo`lishi, yosh-jinsiy tarkibdagi o`zgarishlar, tug`ilishning qisqarishi orqali ro`y beradi. Shu o`rinda aholi yosh tarkibida qariyalarning ortishiga ta`sir etuvchi o`rtacha umr ko`rish davrining muddatini ham hisobga olish lozim. Sababi, agar tug`ilganda kutilayotganda umr ko`rish davomiyligi qisqa bo`ladigan bo`lsa, qariyalar soni aksincha ko`paymaydi.


Aholining quyidan qarishi tug`ilish darajasining pasayishi, yukoridan qarishi esa tug`ilganda kutilayotgan umr davomiyligining uzayishi natijasidir. Ammo

Uzbekiston aholisining o`rtacha umr kurish davri yildan-yilga ortib borayotganligi, tug`ilishning pasayishi aholi yosh tarkibida keksa kishilar ulushining ko`payishidagi etakchi omillardir. Bu esa aholining dastavval quyidan, keyinchalik yuqoridan qarishidan dalolat beradi.

O`rganishlar natijasi, viloyat aholisining yosh tarkibida bir xil mehnatga layoqatli aholi qatlami yildan-yilga ko`payib, qolgan yosh guruhidagilar ulushi tobora makon va zamonda qisqarib borayotganligini ko`rsatmokda. Respublika aholisi tabiiy harakat ko`rsatkichlari ijobiyligi bois ham viloyatlar aholisining deyarli 90-95 foizi bolalar va o`smirlar hamda mehnatga layoqatli yoshdagilardan iborat.

Muayyan bir hududda bolalar va yoshlar qanchalik ko`p bo`lsa, jinslar nisbatining o`rtacha ko`rsatkichi me`yorida saqlanadi. Aholi jinsiy tarkibida erkaklar va ayollar salmog`ining tengligi, ya`ni mutanosibligi ularning nikohga kirishida va oilalar tashkil topishida, tug`ilish jarayonining ijobiy rivojlanishida muhim rol` o`ynaydi. Viloyat aholisining jinsiy tarkibida erkaklar (49,9 %) ayollar mikdori (50,1 %, 2016 y) deyarli tengdir. Faqatgina, qishloq axolisida ayollar 49,8 %, erkaklar 50,2 % bo`lib, erkaklarning ustunligi kuzatiladi. Ammo tarixiy manbalarda ma`lum bir davrlarda barcha xududlarda erkaklar ayollarga qaraganda ko`p bo`lganligi keltiriladi. Chunki, viloyat aholisi jinsiy tarkibida ayollar ko`payishi o`tgan asrning o`rtalaridan boshlangan bo`lib, bunga o`sha davrdagi ijtimoiy-demografik holat, ya`ni 1940-1945 yillardagi urush oqibatlari sababdir. Biroq mamlakatdagi qulay demografik vaziyat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish aholining gender farqining yo`qolishiga va tengligiga olib kelmoqda.

Aholining jinsiy tarkibi uning tabiiy harakati va takror barpo bo`lish qonuniyatlarini tadqiq etishda, ishlab chiqarishni xududiy tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biologik va ijtimoiy omillar ta`sirida shakllanib, rivojlanadigan aholining jinsiy tarkibida bolalik chog`ida jinslarning o`zaro teng bo`lishi biologik omillar ta`siri bilan bog`liq bo`lsa, yuqori yosh guruhlarida ijtimoiy omillar faolligi ustun bo`ladi. Viloyat aholisida erkaklar va ayollar salmog`i xuddi shu omillar tufayli o`zaro mutanosibdir.



3-chizma. Viloyat aholisining jins tarkibi diagrammasi

Ayollar va erkaklar soni turli yosh guruxdarida bir-biridan ma`lum darajada farq qiladi. Jumladan, 0-34 yoshgacha bo`lgan aholi jinsiy tarkibida erkaklarning miqdori ayollarga nisbatan ancha katta, 35 yosh va undan yuqori yosh guruxdarda esa ayollar erkaklarga qaraganda salmoqli ko`rsatkichni tashkil etadi. Aholining yosh ko`rsatkichi ortib borgani sari barcha yosh guruhalarda ayollarning erkaklarga nisbatan ustunligi sezila boradi. Chunonchi, 2016 yildagi aholi jinsiy tarkibidagi o`zgarishlarni yosh guruhlari bo`yicha qaralganda, 0-2 yoshgacha bo`lganlardan har 100 ta o`g`il bolaga 94,3 ta qiz, 0-15 yoshgacha bo`lganlarda esa 95 ta qiz to`g`ri keladi. Shuningdek, reproduktiv yoshdagi aholi, ya`ni 15-49 yoshdagi aholida har 100 ta erkakka 100 ta ayolning mos kelishi viloyat aholisi tabiiy ko`payishidagi muhim omilni o`zida yaqqol ifodalaydi.

Aholining yoshi kattalashgani sari erkaklar miqdori ayollarga karaganda kamayib bormokda va u, eng yuqori yosh guruhalarda yanada aniq ko`rinadi. Buni erkaklarda yosh bo`yicha turli ekzogen va endogen omillar tufayli ro`y beradigan o`lim hodisasining ayollarga nisbatan ko`pligi hamda qisman tashqi migratsiya bilan bog`lash mumkin. Chunki, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarning aholi jinsiy tarkibining yosh bo`yicha o`zgarishida ta`siri unchalik katta emas.

Aholining milliy tarkibi uzoq davom etgan tarixiy demogeografik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar natijasida shakllanadi, rivojlanadi. Odatda, millatlarning tarkib topishi va joylanishida, aholining tabiiy va mexanik harakati, etnik taraqqiyoti, ma`muriy-hududiy o`zgarishlar muhim o`rin tutadi. Aynan shu omillar ta`sirida hudud aholisining milliy tarkibi shakllanadi, rivojlanadi. Faqat bu omillarning borishi turli joydalarda turlicha kechadi, ya`ni geografik xususiyatlarga ega bo`ladi.

Xorazm aholisi milliy tarkibi shakllanishida mexanik harakatga nisbatan tabiiy harakat muhim rol` o`ynagan. Viloyat aholisi milliy tarkibining katta qismini azaldan mahalliy millatlar, xususan, o`zbeklar qozoqlar, qaroqalpoq, turkmanlar tashkil etadi.

Sobiq itgifoqning parchalanishi ko`pgina davlatlar, shu jumladan, O`zbekiston Respublikasi aholisi milliy tarkibining o`zgarishiga ham ma`lum ma`noda sabab bo`ldi. Chunki, Itgifoq tarkibidagi mamlakatlarning mustaqillikka erishuvi rusiy zabon millatiga mansub kishilarning migratsion faolligining oshishiga olib keldi..

O`zbeklar respublikaning ilgaridan mavjud shaharlar va sug`orma dehqonchilik qilinadigan hududlarida yashab kelganlar. O`zbekistonda 1989 yilda aholisining milliy tarkibida o`zbeklar hissasi 90 foizdan yuqori bo`lgan mintaqa birgina Xorazm viloyati (94,6 %) to`g`ri kelgan va hozirgi kunda u 96% yuqori ko`rsatkichka ega bo`ldi.

III-BOB. XORAZM VILOYATI AHOLISINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHI BILAN BOG'LIK MUAMMOLAR VA UNI HAL ETISH YO'LLARI

III.1.Orolbo`yi mintaqasining demoekologik muammolari va uning viloyat demografik vaziyatidagi o'rni

Aholi qulay tabiiy sharoit, iqtisodiy geografik o`rin, iqlim, rel`ef, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va demografik vaziyatga mos tarzda joylashadi, taraqqiy etadi. Oqibatda, aholi joylashgan hududlar tobora markazlashib, murakkab tizimlarni tashkil etadi. Barcha davrlarda ham aholi joylanishini tabiiy omillar belgilagan, Ayniqsa, er, suv, o`rmon, mineral, energetik va boshqa tabiat resurslaridan ishlab chiqarish, sog`liqni saqlash, madaniy-estetik, ilmiy va hokazo maqsadlarda keng foydalanish asosida turli katta kichiklikda aholi foizlarining vujudga kelishi, transport tizimining murakkablashuvi ro`y beradi.

Aholi soni muttasil o`sishda davom etayotgan bir vaqtda insoniyatning tabiiy resurslarga bo`lgan har tomonlama munosabati uni o`rab turgan atrof-muhitning tobora o`zlashtirilishiga olib kelmoqda. Aholining o`sishi ushbu resurslarga bo`lgan ehtiyojlarni tobora yuksaltiradi. Mazkur ishlar samarasi jamiyat uchun qanchalik ahamiyatli bo`lishiga qaramasdan, insoniyat oldida qator hal etish murakkab kechadigan muammolarni yuzaga keltiryapti. Aholi o`sishi va joylanishi bilan bog`liq tabiiy resurslarning yo`qolib ketishi, ichimlik suvi etishmasligi, turli xil kasalliklarning paydo bo`lishi, er maydonlarining qisqarishi, zichlikning ortib borishi, atrof-muhit ifloslanishi shular jumlasidandir.

V. A.Krasilov er shari aholisi soni o`sib ketishining beshta noxush oqibatlarini ajratib ko`rsatadi va izohlaydi. Bular ichida alohida e`tiborga olinadigani moddiy ehtiyojga talabning oshishi, shahar aglomeratsiyasining o`sishi, atrof-muhitning ifloslanishi, hayot darajasining pasayishi, aholi tarkibining o`zgarishidir¹.

Aholi soni tez ko`payishi zichlikning ortishiga, aholi yashaydigan qishloq, shaharlar maydoni ekin ekiladigan er maydonlari hisobiga kengayishiga, tabiiy resurslarning yo`qolib ketishiga sabab bo`lib qolmokda. Bundan tashqari, atrof-

muhit ifloslanishi, zaharlanishlar tufayli, allergik, endokrik, genetik, zaharlanish, xavfli o'sma kasalliklari ko`payib boryapti. Insonlarning tabiatga bo`lgan salbiy munosabati, ya`ni havoga, erga, suvgaga haddan tashqari kimyoviy moddalarning ko`plab chiqarilishi, rak kasalliklarining 80 foizdan ko`prog`ini keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, turli iflos gazlardan nafas olish, radiatsiya nurlaridan zaharlanish aholining demografik rivojlanishiga, aholi punktlari bo`ylab joylanishiga ham ta`sir ko`rsatmoqda. Binobarin, aholi sonining tez sur`atlarda o'sishi, moddiy boyliklarga bo`lgan ehtiyojining ortishi, aholining shaharlarda mujassamlashuv jarayoni, sanoat ishlab chiqarishi, transport tizimining rivojlanishi bilan bog`liq ekologik va sotsial muammolar tobora keskin global tus olmoqda.

Ekologik muammolar ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi, aholi punktlari joylanishi, transport va boshqa antropogen omillar faoliyati bilan uyg`unlikda yuzaga keladi. Aholi joylanishi bilan bir vaqtida paydo bo`ladigan ekologik muammolar ularning kasallanishi, o`lim ko`rsatkichlari, tug`ilish darajasi va o`rtacha umr ko`rish yoshida ifodalanadi. Ushbu jarayonlar faoliyati aholi sog`lig`i, turmush sharoitida atrof-muhitning tutgan o`rni va unda turli tabiat elementlari ta`siri bilan belgilanadi.

Jahon sog`lijni saqlash tashkilotining 2006 yil 5 iyunda chop etilgan ma`ruzasida er yuzida paydo bo`ladigan kasalliklarning 24 foizi va yuz beradigan o`limning esa 23 foizi atrof-muhitdagi oldi olinishi mumkin bo`lgan omillarning zararli ta`sirida vujudga kelar ekan¹. Ba`zan aholi salomatligini atrof-muhit ifloslanishi bilan bog`layotganimizda bir tomonlama yondashuv kuzatiladi. Holbuki, atrof-muhit, xususan tabiiy muhitning o`zi ham ba`zi hududlarda inson hayotiga xavf tug`diradi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, fan-texnikaning rivojlanishi bunday tabiiy muhitdagi zararli, noxush holatlarga barham berib kelmoqda. Natijada, bugungi kunda inson o`zi yaratgan antropogen, sun`iy muhitdan tabiiy muhitga nisbatan bir necha barobarga ko`p aziyat chekmoqda.

V.A.Sitarov, V.V.Pustovoytovlar fikricha, aholi soni va uning zinchligi qancha

yuqori bo`lsa, ularning umumiyligi sog`lig`ining holati shunchalik yomonlashadi, pandemiya va epidemiyalar oqibatlari o`ta xavfli bo`ladi¹. Aholi salomatligi juda qiyin va murakkab tiklanadigan resurslardan biri bo`lib, u mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi mezon hisoblanadi.

Tabiiy sharoit, iqlim, aholi rivojlanishi va uning sog`lig`ida muhim rol` o`ynaydigan omillar sirasiga kiradi. Global ahamiyat kasb etgan tabiiy-iqlim tasnifidagi muammolar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo`lgan muammolarga qaraganda juda qiyinchilik bilan hal etiladi. O`zbekistonda tabiiy-iqlim doirasidagi muammolarga Orol dengizining suv sathi pasayishi bilan bog`liq ekologik muammolarni keltirish mumkin. Mazkur ekologik halokat nafaqat O`zbekiston Respublikasi xududini, balki Turkmanistonning shimoli-sharqiy, xususan Doshhovuz viloyati va uning atrofi hamda Qozog`iston Respublikasining janubiy-g`arbiy mintaqalaridagi viloyatlar aholisida, ularning ijtimoiy-demografik rivojlanishida bevosita kuzatiladi. Shuningdek, dengizning qurigan erlaridan ko`tarilayotgan tuz va bir vaqtlar qishloq xo`jaligida ishlatilgan ximikatlarning havoga ko`tarilishi oqibatida qum bo`ronlari xosil bo`lmoqda, bu esa aholining turmush sharoigini og`irlashtirib, ekologik inqirozni vujudga keltirmokda.

Demak, ekologik muammo - insonning tabiat bilan bo`lgan o`zaro aloqasida vujudga keladigan jarayondir. Jumladan, Orol dengizining qurib borishi oqibatida paydo bo`lgan ekologik fojea ham bunga misol bo`la oladi. Ma`lumki, o`tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin O`rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirish maqsadida cho`l va dashtlarga haddan tashqari suv chiqarilishi va ularning o`zlashtirilishi, Orol dengizining manbai hisoblanmish Amudaryo va Sirdaryo suvining asosiy qismi qishloq xo`jaligiga sarflanishi ushbu dengizga me`yordagi suvning etib kelmasligiga sabab bo`ldi.

Orol dengizi qurib borishi bilan mintaqada yuzaga kelgan muammodan mamlakatimizda Qoraqalpog`iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlari, Qozog`istonning Qizil O`rda va Mang`istov (Mang`ishloq) viloyatlari, Turkmanistonning Toshhovuz viloyati ko`proq aziyat chekmoqda.

Dengiz qurigan tubidan atmosferaga ko`tarilayotgan chang va tuzlar ta`sir doirasi juda katta va u yil sayin kengayib, global muammoga aylanib bormoqda.

Ushbu masala yuzasidan O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o`tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab Orol dengizining qurib borishi munosabati bilan mintaqada xalqaro ahamiyatga ega bo`lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning murakkab majmuasi yuzasidan BMT Bosh Assambleyasining 48 va 50- sessiyalaridagi chiqishlarida, Markaziy Osiyo beshta mamlakatlari Olmati deklaratsiyasida (1997, 2009) ushbu dengiz havzasidagi ekologik halokat muammosi global xususiyatga ega ekanligini alohida qayd etgan.

Ta`kidlab o`tilganidek, o`tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab mintaqaning cho`l va chalacho`l zonasi o`zlashtirila boshlagan. Olimlarning fikricha, Orol dengizi havzasida 1950 yilda jami sug`orma dehqonchilik maydoni 2,9 mln gettardan, 1990 yilga kelib 7,0 mln gettarga etdi. Dengizga suv keltiruvchi Amudaryo va Sirdaryodan juda ko`p kanallar chiqarilib, bahorgi suv omborlarida yig`ilib olinadigan bo`ldi. Natijada, Orolga 1960 yilda 50 kub km suv kelgan bo`lsa, 1980 yilda 20 kub km ga tushib qoldi, 1985-1986 yillarda suv deyarli kelmagan.¹⁶

Buning oqibatida yil sayin dengiz ko`لامи kamayib, uning sathi pasayib bordi. Masalan, 1960-2004 yillar mobaynida Orol dengizi sathi 22,7 metrga pasayib, uning akvatoriyasi maydoni 3,9 martadan ziyodga kamaygan. Suv hajmi 1083 km kubdan 115 km kubgacha qisqarib, suv tarkibidagi tuz miqdori 72 g/l gacha etdi. Oqibatda, Orol deyarli “o`lik” dengizga aylandi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln ga ni tashkil etib, tutash hududlarga qum-tuzli aerozollarni tarqatish manbaiga aylanib, Orolqum cho`li paydo bo`ldi.¹⁷

Bu fojea butun insoniyatni larzaga solib, qator olimlar va xalqaro tashkilotlar ushbu muammoning kelib chiqishi va uni bartaraf etish yuzasidan ishlar olib borishdi. Orolning qurigan tubidan atmosferaga ko`tarilayotgan chang

¹⁶ G`ulomov P. Inson va tabiat. “O`zbekiston milliy intsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2009. 83 b.

¹⁷ Экология хабарномаси. №3(84), 2008.

bo`ronlar 1975 yildayoq kosmik tadqiqotlar natijasida aniqlanib, 80-yillarning boshlaridan bunday to`fonlar yiliga 90 kun davomida kuzatilgan. Chang shleyflarining uzunligi 400 km gacha, kengligi 40 km gacha, chang bo`ronlarning ta`sir ko`rsatish radiusi esa 300 km gacha etadi. Bu erda har yili atmosfera havosiga 15 dan 75 mln tonnagacha chang ko`tariladi¹⁸.

Markaziy Osiyoda 1970-1983 yillar mobaynida faqat Amudaryoning o`zidan sig`imi 13 mlrd kub metr bo`lgan Rogun (Tojikiston) va 7,8 mlrd kub m sig`imga ega Tuyamo`yin suv omborlari qurilgan. Daryodan yuzlab ariq va kanallar suv oladigan bo`ldi. Qarshi cho`lining o`zlashtirilishi, Buxoro-Amu, Tuyamo`yin-Toshxovuz singari o`nlab kanallar daryodan suv oladigan bo`ldi.

Buning oqibatida dengizga kelib tushadigan suv miqdori kamayib, Orolbo`yi atrof-muhitining ekologik vaziyati buzildi. 1989 yili dengiz qisman ikkiga ajralgan. Orol dengizi qurib borishi bilan yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni uch guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, bevosita dengizning o`zida sodir bo`layotgan (gidrofizik, gidrokimyoviy va gidrobiologik) jarayonlar. Ikkinchisi, dengiz suv sathining pasayib ketishi bilan bog`liq Orolbo`yi tabiiy muhitining (iqlim o`zgarishi, aridizatsiya, tuproq meliorativ holatining bo`zilishi, dengiz qurigan tubidan tuzlarning shamol bilan atmosferaga ko`tarilishi va b.) o`zgarishidir.

Ushbu keltirilgan omillar ta`sirida yuzaga kelgan mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar Orol dengizi salbiy oqibatlarining uchinchi guruhini tashkil etadi. U eski dengiz transporti tarmog`i, baliqchilik xo`jaligi va baliq sanoatining yo`q bo`lib ketishida o`z aksini topgan. Bu o`z navbatida, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, aholini ish bilan ta`minlash va boshqa ijtimoiy muammolarni vujudga keltiradi.

Demak, iqtisodiyotning rivojlanishi, aholining ijtimoiy-turmush sharoiti bevosita hududning ekologik vaziyatiga ham bog`liqdir. Shunga qaramasdan, Turkmanistonda 2010 yili kattaligi 3460 km^2 , chuqurligi 130 metrlik ulkan

¹⁸ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тарақкиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997. - 125 б.

sun`iy dengiz qurilishi boshlangan. Uning birinchi navbatni 2004 yilda ishga tushirilgan. “Oltin asr ko`li” deb nom berilgan sun`iy dengiz uzunligi 1100 kilometrlik “Qoraqum” magistral kanali orqali har yili 100 mln m³ daryo suvini olib ketmoqda. Bu o`z navbatida, Orol bo`yida yashab kelayotgan 5 mln aholining sog`ligi, iqtisodiy, madaniy turmushiga salbiy ta`sir etmoqda.¹⁹

Mintaqada shamolning asosan shimol va shimoli-sharqdan esishi natijasida dengiz qurigan tubidan havoga ko`tarilayotgan chang va tuzlardan ko`proq uning janub qismi katta zarar ko`rmoqda. Shu sababli, ekologik vaziyat, avvalambor Xorazm tabiatining o`zgarishida muhim omil bo`lmoqda. Ushbu muammo, o`z navbatida, aholiga ta`sir ko`rsatib, uning ko`chib ketishiga, har xil yuqumli kasallik turlari va u bilan kasallanganlar sonining ko`payishi esa, o`lim darajasi, ayniqsa go`daklar o`limining o`sishiga olib kelmoqda.

Xorazm viloyatidagi demografik vaziyat va uning tahlillaridan ma`lum bo`lishicha, sodir bo`layotgan jarayonlar shimoldan janubga, ya`ni Orol dengizidan uzoqlashib borgan sari farqlanib boradi. Bunday hududiy tafovutlarni aholining tabiiy ko`payish jarayonlari, eng avvalo o`lim ko`rsatkichlari, tashqi migratsiya va joylanishida ko`rish mumkin.

Ma`lumki, Orolbo`yi aholisining yuqori darajada kasallanishi va kasallik turlarining ko`payishi bevosita dengiz qurishi hamda uning qurigan tubidan ko`tarilgan chang to`zonlar bilan atmosfera havosining ifloslanishi, shuningdek, ichimlik suvi sifatining talab darajasiga javob bermasligiga bog`liqdir. Binobarin, aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta`minlash mintaqada echilishi muhim bo`lgan shu kunning asosiy muammolaridan biridir.

So`nggi yillarda mamlakatimizda sifatli ichimlik suvi bilan taminlash masalasi yuzasidan olib borilgan qator amaliy ishlar natijasida aholining ichimlik suvi bilan ta`minlanishi va sifati birmuncha yaxshilandi, ammo mazkur muammo hamon keskinligicha qolmoqda. Ushbu muammoning keskinligi, birinchidan, mintaqqa aholisining asosiy qismi ichimlik suvi bilan

¹⁹ G`ulomov P. Inson va tabiat. “O’zbekiston milliy intsilopediyası” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2009. 83 b.

ta`minlanmaganligi, ikkinchidan esa, mavjud suvning sifati talab darajasiga javob bermasligi bilan ifodalanadi.

Ichimlik suvi sifatida janubiy va markaziy hududlarda qishloq aholisining aksariyat qismi bosma kran va quduqlardan, shu bilan birga ariq suvlaridan ham keng foydalanmoqda. Bu suvlar ichimlik sifatida qo`llanishga umuman yaramaydi. Sababi, Amudaryoga uning yuqori va o`rta oqimidan har yili tarkibida xilma-xil mineral o`g`it, pestitsid va gerbitsidlar bilan ifloslangan 4,5-5,0 mldr kub m kollektor suvlari quyilmoqda. Bundan tashqari daryoga har yili 400 ming kub m sanoatda foydalanilgan suvlar qo`shiladi.²⁰

Ta`kidlab o`tilgandek, mintaqaning ekologik vaziyati inson salomatligiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda. Viloyatda aholining umumiy va go`daklar o`limi darjasini tadqiq qilinayotgan barcha yillarda mamlakatimiz o`rtacha ko`rsatkichidan yuqori bo`lgan.

Ekologik vaziyat viloyatda demografik jarayonlarning ichki tafovutlarining vujudga kelishiga olib kelgan. Jumladan, 1991-2008 yillarda aholining o`rtacha o`lim ko`rsatkichi Orolqum cho`lidan 100 km uzoqlikda joylashgan hududda 6,8-7,0 promille, 100-150 km gacha bo`lgan mintaqada 6,0-6,2 promille va 150 km dan olis bo`lgan erlarda 5,5 promille atrofida bo`lgan. Xorazm viloyatida go`daklar o`limi 1993 yili 43,9 promilleni tashkil qilgan. Mazkur jarayon so`ngi yillarda 20,0-25,5 promille atrofigacha pasaygan.

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy siyosat, ya`ni aholi turmush faravonligini oshirish, sog`lom avlodni shakllantirish kabi aholining sifat darajasiga katta e`tibori tufayli go`daklar o`limi yil sayin kamayib, 2015 yili 13,9 promillega tushdi. Bu ko`rsatkich Xorazm viloyatida 14,0-15,0 promillegacha o`zgarib bordi. Shu o`rinda aytib o`tish joizki, keyingi yillarda viloyatda umumiy va go`daklar o`limi biroz kamaygan bo`lsada, uning ko`rsatkichlarini mamlakatimiz o`rtacha ko`rsatkichidan yuqoriligi saqlanmoqda.

²⁰ Бахиев А., Ешанов Т.Б., Аметов М.Б., Хожаниязов Д., Утамбетов Б. Дәүйиримиздин экологиялық машқалалары. – Нокис: Билим, 2001. – 292 б.

Xorazm viloyatining geografik joylashgan o`rni, uning Orol dengiziga bevosita tutash ekanligi va Amudaryoning quyi qismida joylashganligi hamda ushbu daryo suvining yil sayin kamayib borishi mintaqa ekologik vaziyatining yanada keskinlashuviga ta`sir etdi. Shu o`rinda e`tirof etish lozimki, Xorazm agrar viloyat, mintaqa iqtisodiyotining negizi qishloq xo`jaligiga, ya`ni agrar sektor, aholisining esa deyarli yarmidan ko`pi qishloq joylariga to`g`ri keladi. Binobarin, suv resurslarining tanqisligi qishloq xo`jaligini yuritish hamda aholini ichimlik suvi bilan ta`minlash va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayishiga olib keladi.

Orolbo`yi mintaqasida ekologik vaziyat bilan bog`liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning echimini topish ko`p jihatdan ilmiy yondashishni taqozo qiladi. Hozirgi kunda mintaqada yuz berayotgan ekologik muammolar jahonning qator xalqaro tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot institutlari diqqat markazida turibdi. Bu borada mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish qo`mitasi, 2009 yilda tashkil etilgan “Ekologik harakat” ijtimoiy-siyosiy tashkiloti, “EKOSAN” xalqaro hayriya jamg`armasi shular jumlasidandir. Shuningdek, ushbu masalalar bilan shug`ullanuvchi boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan qator amaliy ishlar bajarilib, muntazam ravishda ilmiy va amaliy anjumanlar o`tkazilib borilmoqda.

Ekologik ofat va favqulodda (haddan tashqari) hududlar uchun er usti va er osti suvlarining ifloslanishi yuqori, tuproq holatining pastligi (38 ball), sug`oriladigan erlarda sho`rlanish darajasining yuqoriligi, ichimlik suvining talabga javob bermasligi (80 foiz), buning natijasida aholining, ayniqsa go`daklar kasallanishi va o`limining eng yuqori ko`rsatkichlari xos. Umuman olganda, ko`rilayotgan mintaqada barcha ekologik ko`rsatkichlar ekologik me`yordan 1,5 – 2,0 barobar ko`p.²¹

Xorazm quruq iqlim sharoitida joylashganligi bois, qishloq xo`jaligida foydalilaniladigan er maydonlarining deyarli barchasi obikor erlar hisoblanadi. Lekin, keyingi yillarda mintaqaning birdan-bir suv manbai hisoblangan

²¹ Национальный доклад о состоянии окружающей среды и использовании природных ресурсов в Республики Узбекистан. – Ташкент, 2008

Amudaryo suvining keskin kamayishi oqibatida mavjud ekin maydonlaridan to`liq foydalanishni qiyinlashtirdi. Mavjud omillar mintaqada qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Avval qayd etilganidek, Xorazm qishloq aholisi ko`p qo`l mehnatini talab qiladigan qishloq xo`jalik ishlari bilan band. Bu esa ishsizlik muammosini, viloyat iqtisodiyotining asosini qishloq xo`jaligi tarmog`i tashkil etishi esa iqtisodiy muammoni vujudga keltiradi.

Xorazmda mavjud sug`oriladigan erlar 100 foiz sho`rlangan bo`lib, shundan 50 foizini kuchli va o`rtacha sho`rlangan erlar tashkil qilgan. Ekologik vaziyat oqibatida kasallanish darajasining yuqoriligi, shuningdek, tuproq meliorativ holatining bo`zilishi, suv resurslarining tanqisligiga bog`liq qishloq xo`jaligi muammolari o`z navbatida, mintqa aholi sonining o`sishi va joylanishiga bevosita ta`sir ko`rsatadi.

O`zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish, sog`lom avlodni tarbiyalash hamda inson manfaatlarini himoya qilish mustaqil davlat siyosatining asosiy va ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylandi. Viloyatimizda mavjud ekologik muammolar, shu jumladan, Orol inqirozlarining oqibatlari, murakkab ijtimoiy-ekologik vaziyat va mazkur muammoni hal qilish masalalari davlatimiz diqqat markazida turibdi.

Orol dengizi muammosi yoki taqdirini uch asosiy ko`rinishda tahlil qilish mumkin. Ular: dengizning qurib borishi, hozirgi holatini saqlab qolish va dengizning suv bilan to`ldirilishi. Tabiiyki, Orol dengizini to`ldirish juda murakkab masala. Kelajakda dengiz qurib borsa, uning yo`q bo`lib ketishi ekologik vaziyatni yanada keskinlashtiradi. Oqibatda, uning qurigan tubidan atmosferaga ko`tariladigan chang va tuzlar miqdori ortib borishi aholi salomatligiga, tuproq meliorativ holatining yomonlashuviga ta`sir etadi. Ayni vaqtda, dengizga suvning kelishi va uning to`lishi qator ijobiy holatlarni vujudga keltiradi. Biroq uning imkoniyati juda cheklangan. Shu sababdan, dengizning hozirgi holatini saqlab qolish juda zarur.

III.2.Tug`ilishni tartibga solish muammolari

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng mamlakatimizda bozor munosabatlariga qaratilgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar olib borilmoqda. Ushbu davrda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ba`zi qiyinchilik va muammolar yuz berib, ular demografik jarayonlarini ham o`z ichiga qamrab oldi. Binobarin, demografik jarayonlar mintaqaviy xususiyatlarga ega va bu jihatdan Xorazm viloyati alohida ahamiyatga ega. Aholining milliy va mintaqaviy siyosatining eng ahamiyatli maqsadining biri, bu aholining sifatli rivojlanishi bo`lib, u aholining ahvolini yaxshilash va salomatligini mustahkamlashdan iborat. Bularning barchasi to`g`ridan-to`g`ri aholi to`g`ilish jarayoni bilan bog`lik.

Xorazm viloyatida tug`ilishning yuqori sur`atda bir nechta yillar, hattoki, bir nechta demografik avlod almashinishi davomida, ekologik inqiroz sharoitida ham saqlanib qolishi xotin-qizlarning, bolalarining va butun Xorazm aholisining salomatligininng yomonlashishiga, har xil kasalliklarning yangi turlarining kelib chiqishiga sabab bo`ldi.

Respublikamiz xotin-qizlari o`rtasida o`tkazilgan maxsus tibbiy ko`rik natijasida ularning ko`pchiligi har xil kasalliklar, shu jumladan surunkali kasalliklar bilan ko`p kasallanishi aniqlangan. Ayniqsa, farzand ko`rish yoshidagi onalarning va qizlar orasida ekstragenital` kasalliklar onalar o`limchiligiga olib keladigan kam qonlilik kasalliklarining ko`plab uchirashishi ochinarli hol bo`lib hisoblanadi. Ayrim o`tkazilgan dispanserizatsiya xulosalariga ko`ra Quyi Amudaryo, jumaladan Qoraqalpog`iston va Xorazm xotin-qizlarining 80% dan ortig`i, to`g`ish yoshidagilarning 98-99% i kam qonlilikka duchor bo`lganligini ko`rsatadi.

Oshqozon-ichak yarasi kasaligining yangidan paydo bo`lgan zararli turlari so`ngi yillarda ko`paymoqda. Yildan-yilga yurak qon-tomirlari, o`t pufagi, bo`yrakda tosh yig`ilishi, bo`yrak, anemiya, suv, tuz aylanishining buzilishi kasalligi va tayanch organlari kasalliklari bilan kasallanganlar soni ko`paymoqda.

Viloyatda kasallanish darajasi 76% ni tashkil qilib, oshqozon yarasi, ovqat xazm qilish organlari kasalliklari, qon va qon tomirlari sistemasi kasalliklarining soni respublika o`rtacha ko`rsatkichidan yuqori²².

Yuqorida ko`rsatilganlarni hisobga olgan holda Xorazm aholisi tug`ilishini tartibga solish shu kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu o`z navbatida qoraqalpoq millati va h.k.z. xalqlarning sog`lamlashuviga yo`l ochadi.

Xorazm viloyatida yaqin yillargacha tug`ilish rejalashtirilmay keldi. Lekin, hozirgi paytta aholining demografik vaziyati, uning reproduktiv ko`rsatkichlari keskin o`zgardi.

Viloyatning mahalliy aholisining demografik vaziyatini tahlil qilganimizda uning demografik vaziyatda o`zgarishlar kuzatildi. Unga ko`ra, ayniqsa reproduktiv yoshdagi dastlabki (16-25 yosh) yosh guruhidagilarning fikrlarining o`zgarganligini ko`rish mumkin. Ular o`zlarining oila qurishga shoshilmasliklarini, oiladagi farzandlar sonining o`rtacha 2-3 farzand bo`lishini hoxlashlari aniqlandi.

Bu vaziyat albatta, viloyat aholisining demografik rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta`sirlarini ko`rsatadi.

Ijobiy tomoni ularning farzand ko`rish intervallarini to`g`ri yo`lga qo`yilib, sog`lom avlodni yaxshi tarbiyalash imkoniyatini bersa, salbiy tomoni bu oilalarda keljakda farzandlar sonining yana da kam tug`ilishiga, umuman tabiiy ko`payishning pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu bilan biz, Xorazm oilalarida umuman farzand ko`rishni xohlashmaydigan oilalar bo`ladi degan fikrdan yiroqmiz.

Hozirgi paytda vujudga kelgan yangi vaziyatda, ya`ni reproduktiv ko`rsatkichlarning ancha kamayishi va demografik vaziyatning keskin transformatsiyalanishi davlat tomonidan diqqatdan chetda qolmasligi lozim.

²² Ю.Шадиметов Центральная Азия: Семья, Экология и здоровье. Материалы круглого стола «Семья, экология и здоровье».

Buning uchun davlat kuchli demografik siyosat olib borib, har bir oilani rejalashtirishga, ona va bolalarning salamatligiga katta etibor qaratishi kerak.

Ko`pchilik oilani rejalashtirish tushunchasini oilada farzandlar soni va to`g`ilishni kamaytirish deb tushunadi. Bu albatta, noto`g`ri. BMT tomonidan berilgan izohga ko`ra *oilani rejalashtirish bu har bir oilaning hoxlagan paytda, xoxlagan sondagi farzandlar soniga ega bo`lishi uchun mamlakat tomonidan zaruriy vaziyat va shoroit yaratib berishdan iborat*. Ko`rinib turganidek, oilani rejalashtirishdagi asosiy maqsad aholining, ayniqsa, ona va bolaning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan. Bunday ko`z qarashni bizning mamlakatimiz demograflari ham quvvatlaydi.

Bu haqida tibbiyat, iqtisodiyot sohalarining olimlari, geograflar, demograflar va h.k. qatnashida ishlangan O`zbekistonning uzoq muddatli demografik dasturida ham ko`rsatilgan.

Oilani rejalashtirishning asosiy maqsadi millatning salomatligini, onalarning va ularning farzandlarining salomatligini muhofaza qilish, bola va onalarning o`limini pasaytirish orqali mustahkamlashdan iborat. Yuqorida keltirilganlarga bog`liq, tug`ishni rejalashtirish ona va bolalikni muhofaza qilish, ularning salomatligini mustahkamlash, o`lim darajasini pasaytirish va umir ko`rish yoshining o`rtacha uzoqligini orttirishning ahamiyatli quroli sifatida qoraladi²³.

O`zbekistonning mahalliy aholisi, shu jumladan o`zbek xalqi ham boshqa barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari singari «rejalashtirish» co`zini, ayniqsa, oilani rejalashtirish deganda har bir oilada bo`lishi kerak farzandlar soni miqdorini yuqoridan, mamlakat tomonidan belgilab berish deb qabul qilishadi.

Xorazm viloyatida hozirgi kunda oilani rejalashtirishning amaliy tomoniga bog`liq ishlar foal olib borilishi lozim. Har bir shahar, shaharchalarda, qishloq mahalla kengashlarda va yirik qishloqlarda bu xizmatni olib boradigan tarkibida xotin-qizlar maslahatxonalari, tibbiy-genetik kabinet, «Nikoh va oila»

²³ Р.Убайдуллаева, О.Б.Ата-Мирзаев, Д.А.Асадов Развитие семьи и здоровье нации. Материалы круглого стола: Семья, экология и здоровье. Т. 1995. С.22-23.

kabinetlari va h.k.z. mavjud tushuntirish ishlarini olib boradigan punktlarni tashkil etish zarur deb uylaymiz. Aholi orasida targ'ibot tashviqot ishlarini olib boradigan yetuk mutaxassislarni to`plash, ularni bu ishlarni to`g`ri bajarishga yo`naltirish kerak.

Mamlakatimizda oila salomatligi, ona va bola salomatligiga oid bir nechta qaror va farmonlar ishlab chiqilgan. Shularning biri 2009 yil 13-aprel`da O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ona va farzand salomatligini ta`minlash, sag`lom avlodni barpo etish» haqidagi farmonidir.

Tug`ishni rejorashtirish - bu murakkab, ko`p qirrali, katta moddiy chiqinni talab etuvchi ishlardan hisoblanadi. Tug`ilishni tartibga solish va aholining demografik vaziyatini yaxshilash maqsadida olimlarning ishtirokida maxsus bo`lim tashkillashtirilishi kerak. Har bir shahar, shaharcha, tuman, viloyat sharoitidan kelib chiqqan holda tushuntirish ishlari olib borilishi va unda demograf olimlarning fikri inobatga olinib kelajakda aholi soni bilan bog`liq muammolar vujudga kelmasdi. Uning asosiy vazifasi effektiv demografik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish bo`lishi kerak. Bunda asosiy o`rinni tug`ilishni rejorashtirish va oilada onaning va farzand salomatligini mustahkamlab, millatni salomatlashtirish maqsadida rejorashtirish uchun olib boriladigan demografik siyosat egallashi lozim.

XULOSA

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, undagi chuqur tarkibiy o`zgarishlar, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, aholining turmush sharoitini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar aholining yashash darajasida. yangi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi hamda ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda alohida ko`zga tashlanadiki, natijada bunday burilish aholining ijtimoiy-demografik rivojlanishiga ham ta`sir etmasdan qolmaydi.

O`zbekistondagi barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar markazida ijtimoiy-demografik vaziyat muhim o`rin tutadi. Jumladanb bu vaziyat Xorazm viloyatida ham kuzatilib, viloyatda aholining o`sish sur`atlari yuqori. So`nggi yillarda aholining tabiiy o`sishi birmuncha kamaygan bo`lishiga qaramay, u hali ham ba`zi mamlakatlar orasida eng yuqori darajada.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek: «Iqtisodiy o`sishni ta`minlash, yangi ish o`rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o`rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni jadal rivojlantirish, rag`batlantirish va qo`llab quvvatlashga alohida e`tibor qaratildi»²⁴. Bu kabi ishlar samarasi respublika demografik rivojlanishining geodemografik muammolarini hal etish, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “2017–2021 yillarda O`zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha harakatlar strategiyasi” 4-yunalishi buyicha aholini “yangi ish o`rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o`rta maxsus va oliy o`quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta`minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini

²⁴ Каримов И.А. Асосий вазифамиз - Ватанимиз таракетбти ва халқимю фаровонлигини янада юксалтиришдир/-Т.: «Ўзбекистон», 2010. Б.42.

ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yuksaltirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o'rtaida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash”²⁵

Bozor munosabatlariga o'tish (1991-2000 yy.) davrida kishilarning turmush sharoitida yuz bergen ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aholi rivojlanishiga, ulardagi demografik jarayonlarning biroz transformaciyalashuviga sabab bo'ldi. Biroq 2000-2007 yillarni qamrab olgan ikkinchi bosqich faol-demokratik yangilanishlar va mamlakatimizni modernizatsiya qilish davrida iqtisodiyotning barqarorlashuvi demografik jarayonlarda yana asta-sekin rivojlanishga, ko`payishga, o'sishga olib kela boshladi. Aynan shunday vaziyatni yorituvchi ilmiy tadqikot ishlarini respublika miqyosida etarlicha, deb bo`lmaydi. Vaholanki, bunday ilmiy asoslangan izlanishlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturini va mintaqaviy siyosatini ishlab chiqish va uni amalga tatbiq etish uchun zarurdir.

Orol dengizining qurib borishi bilan bog`liq mintaqada ekologik vaziyatning keskinlashuvi, shuningdek, o`ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va

²⁵Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегиси тўғрисида» ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси конун хуҷатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда

demografik sharoitda aholi sonining o`sishi va uning hududiy tarkibini tadqiq qilishni muhim vazifa etib qo`ydi. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqot ishi aholi sonining o`sishi va joylanishiga bag`ishlangan bo`lib, unda ushbu masalalar ma`muriy-siyosiy jihatdan Xorazm viloyati misolida o`rganilgan.

Olib borilgan tadqiqotlariga ko`ra, mintaqa geografik, demografik va ekologik omillar ta`sirida yuzaga kelgan aholi soni o`sishining darajasi bilan mamlakatimizning boshqa hududlaridan ajralib turadi. Shu bois, amalgalash oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi **xulosalar**ni belgilash mumkin:

- Geodemografik jarayonlarni geografik nuqtai nazardan o`rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki, aholi bir vaqtning o`zida ham ishlab chiqaruvchi kuch, ham barcha yaratilgan moddiy boylik va xizmatlarning iste`molchisidir. Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning alohida tarmog`i sifatida turli xil sanoat, qishloq xo`jaligi, transport va xizmat ko`rsatish geografiyasi kabi tarmoqlar hamda geoekologik omillar ta`sirida o`zining rivojlanish qonuniyatlariga ega.
- O`zbekiston aholisining o`sishi va joylanishida demografik sig`imning janubga tomon, urbanizatsiyalashgan hududning sharqqa “siljishi” kuzatiladi. Bu jarayonlarning birinchisi tabiiy, ikkinchisi esa sun`iy omillar ta`sirida sodir bo`lmoqda. Bu esa, o`z navbatida, qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi.
- Xorazm viloyatida aholi sonining o`sishida tabiiy ko`payishning o`rni katta. Shahar va qishloq joylarida hamda qishloq tumanlari va shaharlarda bu jarayon ko`rsatkichi orasidagi farq kamayib, ayni vaqtda aholi sonining o`sishidagi hududiy tafovutlar ko`zga tashlanadi. Shu sababdan, aholi sonining o`sishi uning tabiiy ko`payishidan past.
- Tadqiq qilinayotgan yillarda mintaqa aholisi o`sishini uchta: yuqori va barqaror (1979-1989 yy.), keskin kamayish (1989-1999 yy.), o`rtacha va turg`unlashish (1999-2016 yy.) davrlariga ajratish mumkin. Tahlillar ko`rsatishicha, keyingi yillarda aholi tabiiy ko`payishining biroz o`sishi ushbu

jarayon eng yuqori bo`lgan davr, ya`ni 1980-1990 yillarda tug`ilganlar sonining ko`pligi va ularning hozirgi kunda nikohga kirishi bilan izohlanadi.

Viloyat aholisining o`sishi va joylanishini tadqiq etish natijalariga asoslanib, uning hududiy tarkibini takomillashtirishga oid **taklif va tavsiyalar** sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1. Xorazm O`zbekiston Respublikasi aholi jon boshiga ishlab chiqaradigan yalpi ichki mahsulot xajmi bo`yicha mamlakatda eng keyingi o`rinlarda turadi. Mintaqadagi mavjud ekologik vaziyat, shu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yumshatish maqsadida yalpi hududiy mahsulot ulushini aholi ulushi darajasiga keltirish zarur. Buning uchun mintaqada etarlicha imkoniyat, ayniqsa mehnat resurslari mavjud.
2. Hududiy mehnat taqsimotida Xorazm asosan qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtirishga ixtisoslashgan. Shu sababdan, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturiga binoan oziq-ovqat va engil sanoat korxonalarini qurish, ya`ni agrosanoat majmuasini tashkil etish lozim. Uni qishloq xo`jaligi birmuncha rivojlangan va aholi soni nisbatan tez o`sayotgan shahar va shaharchalarida amalga oshirish katta ahamiyatga ega.
3. Viloyatda cuv resurslarining tanqisligi va vujudga kelgan geoekologik vaziyatni hisobga olib, keljakda uning miqdorini aniqlash va tuproq meliorativ holatiga bog`liq qishloq xo`jaligi ekinlarining tarkibini qayta ko`rib chiqish maqsadga muvofiq.
4. aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suviga bo`lgan talab va ehtiyojini ta'minlashni tubdan yaxshilash, odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish va buni 2017-2021 yillar oraligida to`la amalga oshirishga erishish.

5. Viloyatda ekologik vaziyatni yaxshilash va barqarorlashtirish hamda qulay investitsiya muhitini yaratish va shu asosda qo`shma karxonalarini ko`paytirish muhimdir. Shu bilan ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta`minlash muammolari ham hal etiladi.

6. Mintaqadagi noxush ekologik vaziyat Xorazm viloyatida tub ijtimoiy islohatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Bunda aholining toza ichimlik suvi, tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan muntazam ta`minlash, avtomobil yo`llarini qurish va mavjudlarini tamirlashga katta e`tibor berish zarur. Orol dengizining qurib borishi, demografik vaziyatning o`zgarishi oqibatida viloyatda umumiy, onalar va bolalar o`limi mamlakat o`rtacha ko`rsatkichidan yuqoriligini inobatga olib, aholining sifat ko`rsatkichlarini yaxshilash maqsadida sog`liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Mintaqada ushbu masalalar hal bo`lgan taqdirda ishlab chiqarishning ba`zi tarmoqlari rivojlanib, yalpi ichki mahsulot xajmi oshadi. Bu esa aholining ish bilan ta`minlanish darajasining o`sishiga, uning turmush sharoitining yaxshilanishiga zamin yaratadi. O`z navbatida, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishi aholi joylashuvining takomillashishiga olib keladi. Chunki, viloyatda mehnat resurslari va ishsizlarning umumiy soni yaratilgan yangi ish o`rinlaridan ortiq bo`ldi. Binobarin, Xorazm viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa, sanoat tarmoqlarini va xizmat ko`rsatish sohalarini rivojlantirish muammolariga muhim e`tibor qaratmay turib, ijtimoiy-demografik vaziyatni tubdan yaxshilash, aholi bandligi darajasini ko`tarish va uning tarkibini takomillashtirish muammolarini ijobjiy hal qilish qiyindir.

Adabiyotlar ro'yhati

I. Normativ hujjatlar va asosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегиси тўғрисида» ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 4 мартдаги “2015-2019 йилларда ишлаб чиқаришни таркибий ўзгартериш, модернизация қилиш ва диверсификация қилишни таъминлаш бўйича чора-тадбирлар Дастири тўғрисида” ги ПФ-4707-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 8 сентябрдаги “Кишлоқ жойларда уй-жойларни лойиҳалаштиришни такомиллаштириш ва қурилишни яхшилаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-1403-сонли Қарори
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 19 апрелдаги “2013-2017 йилларда Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини янада яхшилаш ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш тўғрисида» ги ПҚ-1958-сонли Қарори
6. “Ўзбекистон Республикаси аҳоли пунктларининг маъмурий-худудий тузилишини такомиллаштиришга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси вазирлар маҳкамасининг қарори. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 36-Qarori bilan 2015-yil 2-martda tasdiqlangan “Magistratura haqida”gi qonuni T., 2015
8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент, «Ўзбекистон» НМИУ, 2017
9. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент, «Ўзбекистон» НМИУ, 2017

10. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йуллари ва чоралари.- Т.: Ўзбекистон, 2009.

11.Каримов И.А. Асосий вазифамиз — Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. - Т.: Узбекистон, 2010

II. Monografiya, darsliklar, to'plamlar:

1. Буриева М.Р. “Рождаемост в Узбекистане”. Ташкент, “Фан”, 1991, 102 с
2. Bo'riyeva M.R. “O'zbekistonda tug'ilish va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar. /V kn: O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari”. Toshkent, Universitet, 1992, s. 26–37
3. Bo'riyeva M.R. “O'zbekistonda oila demografiyasi”. Toshkent, "Universitet", 1997, 182 b.
4. Бутов В.И. “Демография. Учебное пособие”. –М.: ЫКЦ «Март», 2005, 575 с.
5. Болдырова С.К., Колесов Д.В. Миграция. “Сущность и явление”. М.– Воронеж, 2004.
6. Борисов В.А. “Демография”. Учебник для вузов. М–2001.
7. Всесоюзная перепись населения 1926. Т.15 УзССР (отд.И) Народность, родной язык, возраст, грамотность.1928
8. Валентей и др. “Изучение народонаселения: вопросы методологии”. М., МГУ, 1987, 154 с.
1. Демографический енциклопедический словарь. М., 1985
2. Ключкова М.С. “Демография”. М.,РИОР, 2006.
3. Копылов В.А. “География населения”. М., 1999, с.90.
4. Курбаниязов А.Б. “Формирование и развитие трудового потенциала в Каракалпакии”. Нукус, Изд. “Каракалпакстан”, 1991, 191 с.
5. “Qishloq joylari demografiyasi”. Mualliflar kollektivi. Т., 2005, 139 b.

6. Максакова Л.П. “Миграция населения Узбекистана”. Ташкент, Изд. “Узбекистан”, 1986, 206 с.
7. Максакова Л.П. “Миграция населения: проблемы регулирования”. Т.2001.
8. Мулляджанов И.Р. “Демографическое развитие Узбекистана”. Ташкент, Изд. “Узбекистан”, 1983, 278 с.
9. Рзаев К.Р. “Рыночные проблемы сельской экономики Каракалпакстана”. Нукус, “Каракалпакстан”, 1993, 175 с.
10. Soliev A., Axmedov E., Maxamadaliev R. va b. “Mintaqaviy iqtisodiyot”, T. Universitet, 2003.
11. Tojieva Z.N. “Iqtisodiy va demografik statistika”. O’quv qo’llanma. Т., 2002.

III. Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

1. O’zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. Qomuslar bosh taxririyati. – Toshkent, 1997. – 654 b.
2. Алиакберова Н.М. “Рождаемост в селской семье / Демография семьи. Сб. науч. трудов”, Н 604 ТашГУ, Ташкент, 1980 стр.15–26
3. Алиакберова Н.М. “Анализ современных тенденций рождаемости в Средней Азии / Региональные демографические исследования, Сб. научн”. тр. ТашГУ Н 548, Ташкент. 1978. стр.18–26
4. Ата–Мирзаев О.Б. ”Управление развитием народонаселения Средней Азии. /В кн: Управление развитием населения”. Научные труды ТашГУ, Ташкент 1985, стр.3–8
5. Ата–Мирзаев О.Б. “Проблемы качественного развития народонаселения Средней Азии. Доклад на В–всесоюзном семинаре по проблемам народонаселения”. Ёшкар–Ола, 1985
6. Ата–Мирзаев О.Б., Каюмов А.А. “Народонаселение Узбекистана: демографическая ситуация, политика, информационная база, исследование. Препринт доклада на международной конференции:

Народонаселение стран Центральной Азии, Ближнего и Среднего Востока”,
Стамбул, 1995

7. Ата-Мирзаев О.Б., Каюмов А.А. “Народонаселение Узбекистана: демографическая ситуация, политика, экология. / Ж. Экономика и статистика”, Н 5 1995
8. Ата-Мирзаев О.Б. “Особенности естественного воспроизводства городского населения Узбекской ССР. / Демографические проблемы расселения”, Сб. научн.тр. ТашГУ, Ташкент, 1978. стр.3–19
9. Ата-Мирзаев О.Б. “Актуальные проблемы народонаселения Средней Азии. Известия Узбекского Геогр. Общ-ва”, том 14, 1988, с. 36–39
10. Демографическое поведение населения. / Сб.науч.тр., ТашГУ, Ташкент, 1987, 80 с.
11. Жолдасов А.А. “Демографические последствия коллективизации в Каракалпакии” / Вестник ККО АН УзССР Н 3, Нукус, 1991,стр.72–76
12. Итоги Всесоюзной переписи населения 1959 г. УзССР. М., Госстатиздат. 1962
13. Итоги Всесоюзной переписи населения 1970. /В 7–томах. М., "Статистика" 1974
14. Итоги Всесоюзной переписи населения 1989. (В 10–томах) М., 1990
15. Каштаненкова И.И. “Демографическое поведение семей в Узбекистане. / Демографическое поведение населения”. Сб. научных трудов ТашГУ, Ташкент, 1987, стр.50–55
16. Кононенко С.Н. “Миграционные процессы и демографическое поведение / Демографическое поведение населения”, Сб. науч. тр. ТашГУ. Ташкент, 1987, стр. 34–41
17. Материалы Всероссийских переписей 1920 част 1. Вып.2. Поселенные итоги Амударинской области, 1923, С.11–28
18. Материалы по обследованию кочевого и туземного оседлого хозяйства и землепользования в Амударинском отделе Сырдаринской области. Вып.И. Ташкент, 1915, стр.147–142

19. Raymjanov Z., Ortiqbaev R., Sadullaev A. “Orol ekologik krizisining demografik oqibatlari. // O’zbekiston Respublikasi geografiya jamiyati IV sezd materiallari I qism, Toshkent, 1995
20. Sadullaev A. “Orol bo’yidagi ekologik halokatning ijtimoiy–demografik oqibatlari. // O’zbekiston aholisi va mehnat resurslari. Ilmiy maqolalar to’plami. Toshkent, “Universitet”, 1992, 79–90 b.
21. Safarov I. “O’zbekiston aholisi dinamikasi va uning bazi bir ijtimoiy– iqtisodiy oqibatlari”. // O’zbekiston aholisi va mehnat resurslari. Ilmiy maqolalar to’plami, Toshkent, “Universitet”, 1992, 18–26 b.
22. Soliev A. “O’zbekiston aholisining o’sishi va joylanishidagi ayrim o’zgarishlar”. // O’zbekiston aholisi va mehnat resurslari, Ilmiy maqolalar to’plami. Toshkent, “Universitet”, 1992, 4–17 b.
23. Таджимов Т.Т. “Економико–географические раёны Каракалпакской АССР”. / Научн. тр. ТашГУ. Выпуск 213. География. Ташкент, 1963, с.58–71
24. Убайдуллаева Р., Шадиев Р. “Особенности воспроизводства населения в республиках Средней Азии”. // Население Средней Азии. Секция народонаселения, Выпуск 47. М., “Финансы и статистика”, 1985, с. 3–12
25. Умаров Е.К., Ходжаева Г. “Демографические факторы территориальной организации производства в районах Южного Приарала”. // Журнал «Актуальные проблемы современной науки», №4, Москва, 2003. 151–153 б.
26. Xodjaeva G.A., Umarov E.K. “Orol fojiasi va Qoraqolpog’istonning tabiiy–iqtisodiy zonalari bo’yicha aholini hududiy joylashtirish masalalari”. // O’zbekiston geografiya jamiyati axboroti 18–tom, II qism, Toshkent, 1997, 94–97 b.
27. Ходжаева Г.А. “Особенности миграции населения Каракалпакии”. // Межвузовский сборник научных трудов, ТашГТУ, Ташкент, 1997, с. 71–73

28. Ходжаева Г.А. “Современные демографические процессы Каракалпакистана”. // Материалы VI съезда Географического общества Узбекстана. Т.2006. стр.153–155
29. Елпинер Л.И., Делицин В.М., “Медикобиологические проблемы Аралского моря”. // Известия АН СССР, Сер. геогр, 1991, Н4. стр. 103–112.

IV.Ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferatlari:

1. Абдалова З.Т. “Социално–экономические условия развития городских поселений Нижнеамударинского района”. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.г.н., Ташкент, 1995
2. Садуллаев А. “Демографическое развитие Приаралья (Узбекская часть)”. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва. 1991, 22 с.


V.Internet saytlari:

1. <http://www.demoscope.ru/>
2. <http://www.population.org/>
3. <http://www.Ziyonet.uz/>
4. <http://www.kyrsak.ra/DownloadFiles.htm>
5. <http://www.lex.uz>.

ILOVALAR

1-jadval

	2005 й.	2007 й.	2009 й.	2011 й.	2013 й.	2015 й.
Жами аҳоли	1432,8	1477,8	1561,6	1629,1	1684,1	1715,6
Қишлоқ аҳолиси	1111,7	1153,2	1032	1083,687	1130,6	1156,6
Шаҳар аҳолиси	321,1	324,6	529,6	545,443	553,5	559
Табиий ўсиш	24691	29434	31955	27781	30589	32372
Туғилиши	31362	36358	38842	34831	34831	40252
Ўлим	6671	6924	6887	7050	7050	7880



1-chizma

2-jadval

Xorazm viloyati aholisi to'g'risida umumiylumot*

	2015 y. (ming kishi)	Maydoni ming km kv	Aholi zichligi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	erkak	ayol	Tug'ilish	O'lim	Tabiiy o'sish
Urganch sh.	138,0	0,029	4758,6	138,0		69706	68934	2 957	915	2042
Bog'ot	149,8	0,44	337,9	26,3	123,5	75236	77577	3 505	657	2848
Gurlan	136,4	0,447	305,1	58,4	78,0	70200	68755	3 001	638	2363
Qo'shko'pir	156,9	0,54	290,6	40,8	116,1	80720	79346	3 993	663	3330
Urganch t.	178,7	0,44	406,1	24,2	154,5	90573	91933	3 872	783	3089
Xazarasp	227,4	2,06	110,4	50,7	176,7	114839	116706	5 432	985	4447
Xonqa	170,4	0,432	394,4	58,6	111,8	87549	85977	4 080	765	3315
Xiva	217,3	0,46	472,4	81,0	136,3	109537	111986	5 286	970	4316
Shovot	154,5	0,46	335,9	40,6	113,9	78703	78964	4 005	673	3332
Yangiariq	106,3	0,4	265,8	24,3	81,0	54878	53390	2 369	446	1923
Yangibozor	79,9	0,34	235,0	15,1	64,8	40466	40907	1 752	385	1367
Viloyat bo'yicha	1715,6	6,05	283,5	559	1156,6	872407	874475	40252	7 880	32372

*Jadval Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

3-jadval

2015 й холатига демографик курсаткичлар


	Родившихся			Умершие			Прибывшие			Выбывшие			Браки	Разводы
	Оба пола	мужчины	женщины	Оба пола	мужчины	женщины	Оба пола	мужчины	женщины	Оба пола	мужчины	женщины		
Хорезмская область	40 252	20 711	19 541	7 880	4 218	3 662	6 202	1 751	4 451	7 130	2 140	4 990	17 030	1 014
Город	10 244	5 316	4 928	2 624	1 385	1 239	2 358	699	1 659	4 729	1 549	3 180	4 603	461
Село	30 008	15 395	14 613	5 256	2 833	2 423	3 844	1 052	2 792	2 401	591	1 810	12 427	553
г. Ургенч	2 957	1 561	1 396	915	494	421	1 001	298	703	2 289	843	1 446	1 240	217
Районы:	0	0	0	0	0	0								
1. Багатский	3 505	1 759	1 746	657	334	323	363	83	280	278	56	222	1 549	57
2. Гурленский	3 001	1 541	1 460	638	356	282	301	79	222	421	140	281	1 249	61
3. Кошкупирский	3 993	2 066	1 927	663	350	313	748	159	589	700	181	519	1 640	95
4. Ургенчский	3 872	1 976	1 896	783	420	363	1 464	467	997	959	260	699	1 787	153
5. Хазараспский	5 432	2 817	2 615	985	526	459	458	169	289	639	233	406	2 221	110
6. Ханкинский	4 080	2 079	2 001	765	410	355	477	123	354	408	100	308	1 760	68
7. Хивинский	5 286	2 649	2 637	970	534	436	413	127	286	466	127	339	2 109	101
8. Шаватский	4 005	2 081	1 924	673	372	301	331	86	245	384	94	290	1 568	68
9. Янгиарыкский	2 369	1 250	1 119	446	229	217	382	112	270	324	64	260	1 136	43
10. Янгибазарский	1 752	932	820	385	193	192	264	48	216	262	42	220	771	41

Хоразм вилояти бўйича 2016 йил 1 январ ҳолатига доимий аҳолиси тўғрисида
маълумот

киши

№	Шахар ва туманлар номи	Аҳоли сони	шу жумладан	
			эркак	аёл
	Вилоят бўйича жами	1746882	872407	874475
1	Урганч шаҳар	138640	69706	68934
2	Богот тумани	152813	75236	77577
3	Гурлан тумани	138955	70200	68755
4	Кўшкўпир тумани	160066	80720	79346
5	Урганч тумани	182506	90573	91933
6	Хазорасп тумани	231545	114839	116706
7	Хонка тумани	173526	87549	85977
8	Хива тумани	221523	109537	111986
9	Шовот тумани	157667	78703	78964
10	Янгиариқ тумани	108268	54878	53390
11	Янгибозор тумани	81373	40466	40907

Шахар ва қишлоқ аҳолиси (фоизда)



2-chizma